

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.06.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

IBRAGIMOV NODIR NUSRIDDINOVICH

**MINTAQADA AGRAR SEKTORNI OPTIMAL RIVOJLANTIRISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

IQTISODIYOT FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Urganch - 2026

Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора (DSc) экономических наук

Contents of dissertation abstract of the doctor (DSc) in economic sciences

Ibragimov Nodir Nusriddinovich

Mintaqada agrar sektorni optimal rivojlantirish mexanizmini takomillashtirish (Qashqadaryo viloyati misolida).....3

Ибрагимов Нодир Нусриддинович

Совершенствование механизма оптимального развития аграрного сектора в регионе (На примере Кашкадарьинской области).....45

Ibragimov Nadir Nusriddinovich

Improvement of the mechanism for the optimal development of the agrarian sector in the region (on the example of Kashkadarya Region).....91

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....95

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/2025.27.12.I.06.04 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ABU RAYHON BERUNIY NOMIDAGI URGANCH DAVLAT
UNIVERSITETI**

IBRAGIMOV NODIR NUSRIDDINOVICH

**MINTAQADA AGRAR SEKTORNI OPTIMAL RIVOJLANTIRISH
MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH
(QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

IQTISODIYOT FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Urganch - 2026

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiya mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.DSc/Iqt972 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Doktorlik dissertatsiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasi (www.urdu.uz) va "Ziyonet" axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan

Rasmiy opponetlar:

Bayxonov Baxodir Tursunbayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sauxonov Jonibek Kaziyevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xudayberganov Dilshod Tuxtabayevich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot:

Termiz davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti huzuridagi iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini beruvchi DSc.03/2025.27.12.I.06.04 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "____" _____ soat _____: _____dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi 14 uy. Tel.: (99862) 224-67-00; faks (99862) 224-57-00; e-mail: info@urdu.uz

Dissertatsiya bilan Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____ raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 220100, Urganch shahri, Hamid Olimjon ko'chasi, 14-uy. Tel.: (99 862) 224-67-00, faks.: (99 862) 224-57-00, e-mail: arm@urdu.uz

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "____" _____ kuni tarqatildi.

(2026-yil "____" _____dagi _____ raqamli reestr bayonnomasi).

I. S. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

T. J. Raximov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, i.f.d., dotsent

B. Ruzmetov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosida ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

Kirish (fan doktori (DSc) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda resurslardan foydalanish o'z chegaralariga yaqinlashayotgan sharoitida agrar sektor ishlab chiqarishni rivojlanishini optimal tartibga solish usullarini aniqlash masalalari tobora murakkablik kasb etmoqda. Shu bilan birga globallashtirish jarayoni hozirgi darajasida dunyo mamlakatlarida qashshoqlikni tugatish, umumiy faravonlikni oshirish, 2050-yilga borib 9,7 milliard aholini to'ydirish loyihasini amalga oshirishda agrar sektorni rivojlantirish eng kuchli vositalardan biri sifatida qaralmoqda. Shu sababdan, agrar sektor ishlab chiqarishi rivojlanishini optimal tartibga solish usullarini aniqlash, mahsulot etishtirish, tashish, saqlash va qayta ishlash, sotish, xizmat ko'rsatish jarayonlarini rivojlantirish, ularda innovatsion texnologiyalardan foydalanish asosida aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlash alohida ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, agrar sektor ishlab chiqarishi rivojlanishini optimal tartibga solish, mahsulot ishlab chiqaruvchi subektlar faoliyatiga ta'sir qiluvchi omillar guruhini shakllantirish va tasnifini ishlab chiqish, sohani turli xil dastaklar bilan qo'llab-quvvatlash asosida barqarorligini ta'minlash, ushbu dastaklardan foydalanish samaradorligini baholashga oid keng qamrovli ilmiy izlanishlarga katta e'tibor berilmoqda. Rivojlanishning hozirgi bosqichida agrar sektor ishlab chiqarishi rivojlanishini optimal tartibga solish, mahsulot ishlab chiqarish, tashish, saqlash, qayta ishlash jarayonlariga innovatsion usullarni joriy qilish, mavjud salohiyatdan to'laqonli foydalanish, ishlab chiqarilgan mahsulot nobud bo'lishini oldini olish, tabiiy resursdan samarali foydalanish asosida mavjud bazasini saqlab qolishning ustuvor yo'nalishlarini ishlab chiqish bo'yicha tadqiqot ishlarida zamonaviy statistik hamda ekonometrik usullardan foydalanish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida agrar sektorni samarali rivojlantirish, xususan ishlab chiqarishning rivojlanishini optimal tartibga solish usullari aniqlash, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. 2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida “agrar sektorni modernizatsiya qilish va jadal rivojlantirish, xususan, tarkibiy o'zgartirishlarni chuqurlashtirish va agrar sektor ishlab chiqarishini izchil rivojlantirish, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini yanada mustahkamlash, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish, agrar sektorning eksport salohiyatini sezilarli darajada oshirish” kabi qator vazifalar belgilangan. Bu borada agrar sektor ishlab chiqarishi rivojlanishini optimal tartibga solishda innovatsion texnologiyalardan foydalanish, ishlab chiqarish omillaridan foydalanish samaradorligini oshirish va ularning intensiv hamda ekstensiv manbalarini aniqlash, ishlab chiqarishni barqaror rivojlantirish asosida ekonometrik modellarni samarali qo'llash yuzasidan ilmiy izlanishlarni yanada kengaytirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi, 2024-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O'zbekiston Respublikasi agrar

sektorni rivojlantirishning 2025–2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonlari hamda sohaga oid boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha xorijiy ilmiy tadqiqotlar sharhi¹. Agrar sektor va qishloq xo‘jaligi tarmog‘ining iqtisodiyotdagi roli va ahamiyati bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar jahonning etakchi universitet va ilmiy markazlarida, jumladan Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (Food and Agriculture Organization of the United Nations), AQSh qishloq xo‘jaligi departamenti huzuridagi Iqtisodiy tadqiqotlar xizmati (Economic Research Service, AQSh), Winrock xalqaro qishloq xo‘jaligini rivojlantirish instituti (Winrock International Agricultural Development Institute, AQSh), Volgograd davlat agrar universiteti (Volgogradskiy gosudarstvenniy agrarniy universitet, Rossiya), Japan International Cooperation Agency (JICA, Yaponiya), Kyung Hee universiteti (Kyung Hee University Koreya), K.A. Timiryazev nomidagi Rossiya davlat agrar universiteti (Rossiyskiy gosudarstvenniy agrarniy universitet — MSXA im. K. A. Timiryazeva, Rossiya), Ural Davlat agrar universiteti (Uralskiy gosudarstvenniy agrarniy universitet, Rossiya), Rim Sapienza universiteti (Sapienza Universita di Roma, Italiya), Keyo universiteti (Keyo University, Yaponiya), Qozog‘iston milliy universiteti (National University of Kazakhstan, Qozog‘iston) Termiz davlat universiteti (O‘zbekiston) tomonidan olib borilmoqda.

Dunyoda Agrar sektorga kiruvchi mahsulotlar etishtirish samaradorligini oshirish masalalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida, jumladan quyidagi ilmiy natijalar olingan: qishloq xo‘jaligi eksportini subsidiyalash yo‘li bilan emas, balki ilg‘or zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, qishloq xo‘jalikni innovatsion rivojlanishga o‘tkazish orqali erishilgan samaradorlikni oshirishning optimal

¹ www.fao.org - Food and Agriculture Organization of the United Nations (Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti rasmiy sayti); Andrew B. Rosenberg and Steven Wallander. (2020) USDA Conservation Technical Assistance and Within-Field Resource Concerns. Economic Information Bulletin No. (EIB-234) 2020. 32 pp; Sterling Wortman. (2020) “Thoughts on IADS,” March 12, 2020, Rockefeller Foundation Records, RG 1.22, Series 119, Box R2942, IADS – Organization and Planning, 2020, RAC; Кирова Е.А. (2016) Методология определения налоговой нагрузки на хозяйствующие субъекты //Финансы.–М., 2016.–№9.–С. 30-32; Таро Коно. (2019, 2020) This annual report summarizes the activities of JICA in fiscal 2019 (April 1, 2019 to March 31, 2020); Трейси М. (2012) Сельское хозяйство и продовольствие в экономике развитых стран. Введение в теорию, практику и политику. Пер. с англ. Российский государственный аграрный университет, Россия: Экон. шк., 2012.- стр 501; Л.Чжоу, Л.Цфу, Ц.Фан. (2001) Китайское чудо: Экономическая реформа, стратегия развития. -М., 2001. -60-66 стр; Ю.Хромов. (1996) Международная продовольственная безопасность и интересы России // АПК: Экономика, управление. – 1996. – № 5. – стр 19-22; Т. Есполов. (2020) Безотходную технологию выращивания облепихи разработали в Казахстане. Научная статья № 5, 2020 г. режим доступа - <https://eldala.kz>; Abdug‘aniev O. (2021) Iste‘mol savatiga kiruvchi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari samaradorligini oshirishni modellashtirish asosida takomillashtirish. Monografiya. - T.: 2021 y., 136-bet;

mexanizmi ishlab chiqilgan (Economic Research Service, AQSh); aholini qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanganlik darajasini aniqlashning baholash mezonlari ishlab chiqilgan (Vologradskiy gosudarstvenniy agrarniy universitet, Rossiya), hududiy darajada agrar sektor mahsulotlari ishlab chiqishda unga ta'sir qiluvchi omillarni e'tiborga olgan holda ekonometrik modellar ishlab chiqilgan (Qarshi davlat universiteti, O'zbekiston).

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy davlatlarda agrar sektorni innovatsion boshqarish, agrar sektor mahsulotlarini diversifikatsiyalash, agrar sektorni barqaror rivojlantirish, agrar sektorni tartibga solish, agrar sektorni barqaror rivojlanishi va uning to'siqlari va oqibatlari ko'pgina olimlar va tadqiqotchilar tomonidan o'rganilgan. Jumladan, Yan Su, Xianping Wang, Goetz Renan, Ademola A. Adenle, E. Jane Morris, Govindan Parayil, Rozélia Laurett, Arminda Paço, Emerson Wagner Mainardes, Jessica Rudnick, Meredith Niles, Mark Lubell, Laura Cramer, va boshqalar ilmiy izlanishlarida mazkur masalalar tadqiq qilingan.

MDH olimlaridan Kravchenko R.G., Svil M.M., Shumilina V.E., Sinelnikov V.M., Korsun N.F., Markov A.S., Podashevskaya Ye.I., Yereshko F.I., Medennikov V.I., Kulba V.V., Nosonov A.M., Ivanova I.A., Savkin V.I., Nam M.A., Baydakov A.A., Muratova L.G., Salnikov S.G., Gorbachev M.I. asarlarida agrar sektorda iqtisodiy jarayonlarni matematik modellashtirish, ekonometrik tahlil va modellashtirish, iqtisodiy tavakkalchiliklarni prognozlash kabi masalalar hamda ularning echimi yoritib berilgan.

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan Gulyamov S.S., Shodiev T.Sh., Abdullaev Y.A., Maxmudov N.M., Berkinov B.B., Begalov B.A., Doschanov T.D., Ruzmetov B.R., Abdulaev I.S., Nigmatjanov U., Muxitdinova U.S., Jumaev I.K., Xujakulov X.D., Xo'jaev A.S. va boshqalar ilmiy izlanishlarida ekonometrik modellashtirish, agrar sektorda ishlab chiqarishni rivojlantirish, tartibga solish, xo'jaliklar rivojlanish tendensiya va istiqbollarini ekonometrik prognozlashning, mintaqaviy iqtisodiy tizimni optimal tartibga solishning mexanizmlarini takomillashtirish, Iqtisodiyotni modernizatsiya va diversifikatsiya qilish sharoitida tarkibiy o'zgarishlarning samarali yo'llarini statistik metodlar asosida ishlab chiqishning nazariy-uslubiy hamda ilmiy-amaliy muammolari tadqiq etilgan.

Biroq mazkur tadqiqotlarda, agrar sektor rivojlanishini tartibga solish va agrar sektorda ishlab chiqarishni rivojlantirish istiqbollarini ekonometrik baholash masalalari keng yoritib o'tilgan bo'lishiga qaramasdan, bugungi jahon iqtisodiyotidagi davriy tebranishlar kuchayib borayotgan bir sharoitda agrar sektor ishlab chiqarishi rivojlanishini optimal tartibga solish usullari yaxlit bir tizim sifatida tahlil qilish holatlari va muammoga kompleks yondashish masalalari etarlicha o'rganilmaganligi bu borada ekonometrik va statistik usullar asosida chuqur ilmiy izlanishlar olib borishni taqozo etishi mazkur mavzuning tadqiqot ishi sifatida tanlanishiga asos bo'ldi.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "Doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va talabalar urtasida ilmiy-tadqiqot, ilmiy-ijodiy ishlari" bandi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi agrar sektor ishlab chiqarishini rivojlanishining optimal tartibga solish usullarini aniqlash bo'yicha ilmiy-amaliy taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

agrar sektor mahsulot ishlab chiqaruvchi subektlar faoliyatiga ta'sir qiluvchi muhim bo'lgan ichki va tashqi omillar guruhlarini shakllantirish va ularning tasnifi ishlab chiqish;

ishlab chiqarish funksiyalarining elastikligi koeffitsientlari tahlili va kengaytirilgan ishlab chiqarish manbalarini aniqlash algoritmi asosida agrar sektorda iqtisodiy o'sishni ta'minlashning intensiv va ekstensiv manbalari aniqlash;

agrar sektor mahsulot ishlab chiqarish hajmining prognoz qiymatlarini ishlab chiqish va rivojlanishini optimal tartibga solish usullari aniqlashning kompleks o'zgaruvchili modellar ishlab chiqish;

agrar sektor, xususan dehqonchilik va chorvachilikda mahsulot ishlab chiqarishning istiqboldagi prognoz ko'rsatkichlari ko'p variantli ekonometrik modellar asosida ishlab chiqish.

Tadqiqot obekti sifatida Qashqadaryo viloyatida agrar sektor mahsulotlari va ularni etishtirish jarayonida qatnashuvchi subektlar olingan.

Tadqiqot predmetini agrar sektor ishlab chiqarishini rivojlanishini optimal tartibga solish jarayonida vujudga keladigan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, iqtisodiy-statistik tahlil, qiyosiy tahlil, omilli tahlil, regression va korrelyatsion tahlil, ekonometrik modellashtirish kabi usullar hamda kompleks o'zgaruvchili modellardan samarali foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

agrar sektor tizimini rivojlantirish asoslarini mustaxkamlash islohotlarining samaradorlik ko'rsatkichlari ichki va tashqi omillar (o'sish, yorug'lik, harorat, havoning nisbiy namligi) indekslari asosida rentabellikni ta'minlovchi ekstensiv va intensiv usullar darajasini baholashning $k = \left(\prod_{j=1}^4 k_{dss(j)}\right)^{0,25}$ modeli taklif etilgan;

mintaqa agrar sektor tarmoqlarida ishlab chiqarish intensivligini oshirish darajalarining (0,55; 0,52; 0,52) real, (0,55; 0,54; 0,53) barqaror va (0,56; 0,54, 0,53) optimal ko'rsatkichlari bo'yicha dinamik simulyatsion modellar asosida baholash metodologiyasi taklif qilingan;

agrar sektor tizimini optimal tartibga solishda iqtisodiy, moliyaviy, texnologik, ijtimoiy, ekologik va tabiiy-iqlim shart sharoitlarini hisobga olgan holda barqaror rivojlantirishning $(IK = \left(\prod_{j=1}^6 k_j\right)^{0,125})$ modeli taklif qilingan;

agrar sektor tizimida iste'mol savatiga kiruvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish salohiyati indeksining $(SI \leq 0,31)$ past, $(0,31 < SI \leq 0,66)$ o'rta, $(SI > 0,66)$ yuqori samaradorlik mezonlari asosida minimallashtirilgan adaptiv ekonometrik modellar taklif qilingan;

agrar sektor mahsulot ishlab chiqarish tizimini rivojlanishining istiqboldagi 2026-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashning ko'p variantli ekonometrik modellari taklif qilingan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

agrar sektor mahsulot ishlab chiqaruchi faoliyatiga ta'sir qiluvchi muhim bo'lgan ichki va tashqi omillar guruhlarini shakllantirilgan va ularning tasnifi ishlab chiqilgan;

agrar sektorda iqtisodiy o'sishni ta'minlashning intensiv va ekstensiv manbalari aniqlangan;

agrar sektor mahsulot ishlab chiqarish hajmining prognoz qiymatlarini ishlab chiqish va rivojlanishini optimal tartibga solish usullari aniqlashning kompleks o'zgaruvchili modellar ishlab chiqilgan;

agrar sektor, xususan dehqonchilik va chorvachilikda mahsulot ishlab chiqarishning istiqboldagi 2026–2030-yillarga prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi dissertatsiyada qo'llanilgan yondashuv, xususan, miqdoriy usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi davriy hisobotlaridan olinganligi, ekonometrika va statistika usullari vositasida asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati agrar sektor ishlab chiqarishi rivojlanishini optimal tartibga solish usullarini aniqlash, subektlar faoliyatiga ta'sir qiluvchi ichki va tashqi omillar tasnifini ishlab chiqish va ta'sirini baholash hamda istiqboldagi ko'rsatkichlarini asoslash bo'yicha ishlab chiqilgan uslubiy tavsiyalarning agrar sektor mahsulotlarini ishlab chiqish jarayonlarini ekonometrik modellashtirish, ishlab chiqarishi rivojlanishini optimal tartibga solishning uslubiy-nazariy asoslarini takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati dissertatsiyadagi statistik usullar va ekonometrik modellar, taklif va xulosalardan agrar sektor ishlab chiqarishi rivojlanishini optimal tartibga solish usullarini aniqlash, sohani rivojlantirish bo'yicha o'rta va uzoq muddatga mo'ljallangan istiqbolli davlat, mintaqaviy dasturlarni ishlab chiqish, mavjud muammolarni bartaraf etish, agrar sektorda iqtisodiy o'sishni ta'minlashning intensiv va ekstensiv manbalarini aniqlash va ular ta'sirini baholash hamda oliy o'quv yurtlarida "Statistika va ekonometrika" fanlarini o'qitishda va sohaga oid ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Agrar sektor tizimining rivojlanishini optimal tartibga solish usullari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

agrar sektor tizimini rivojlantirish asoslarini mustaxkamlash islohotlarining samaradorlik ko'rsatkichlari ichki va tashqi omillar (o'sish, yorug'lik, harorat, havoning nisbiy namligi) indeklari asosida rentabellikni ta'minlovchi ekstensiv va intensiv usullar darajasini baholashning $k = \left(\prod_{j=1}^4 k_{dss(j)} \right)^{0,25}$ modeli bo'yicha berilgan taklif Qashqadaryo viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Qashqadaryo viloyat hokimligining 2025-yil 6-noyabrdagi 07-07/9916-son ma'lumotnomasi). Natijada, agrar sektor mahsulotlarini etishtirish jarayonlari bo'yicha tezkor, ishonchli va birlamchi ma'lumotlarni olish imkoniyati yaratilgan;

mintaqa agrar sektor tarmoqlarida ishlab chiqarish intensivligini oshirish darajalarining (0,55; 0,52; 0,52) real, (0,55; 0,54; 0,53) barqaror va (0,56; 0,54, 0,53) optimal ko'rsatkichlari bo'yicha dinamik simulyatsion modellar asosida baholash metodologiyasi bo'yicha berilgan taklif Qashqadaryo viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Qashqadaryo viloyat hokimligining 2025-yil 6-noyabrdagi 07-07/9916-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif agrar sektor tarmoqlarini barqaror rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash imkonini bergan;

agrar sektor tizimini optimal tartibga solishda iqtisodiy, moliyaviy, texnologik, ijtimoiy, ekologik va tabiiy-iqlim shart sharoitlarini hisobga olgan holda barqaror rivojlantirishning ($IK = \left(\prod_{j=1}^6 k_j\right)^{0,125}$) modeli bo'yicha berilgan taklif Qashqadaryo viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Qashqadaryo viloyat hokimligining 2025-yil 6-noyabrdagi 07-07/9916-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifdan foydalanish natijasida mavsumiy tebranishlarni aniqlash hamda viloyatda etishtirilgan agrar sektor mahsulotining real qiymati 2030-yilga kelib 1,16 barobarga oshirish imkonini bergan;

agrar sektor tizimida iste'mol savatiga kiruvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish salohiyati indeksining ($SI \leq 0,31$) past, ($0,31 < SI \leq 0,66$) o'rta, ($SI > 0,66$) yuqori samaradorlik mezonlari asosida minimallashtirilgan adaptiv ekonometrik modellar bo'yicha berilgan taklif Qashqadaryo viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Qashqadaryo viloyat hokimligining 2025-yil 6-noyabrdagi 07-07/9916-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklif agrar sektor tizimida istemol savatiga kiruvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish salohiyatidan samarali foydalanish imkonini bergan;

agrar sektor mahsulot ishlab chiqarish tizimini rivojlanishining istiqboldagi 2026-2030-yillarga mo'ljallangan prognoz ko'rsatkichlarini aniqlashning ko'p variantli ekonometrik modellari bo'yicha berilgan taklif Qashqadaryo viloyati hokimligi mahkamasi faoliyatiga joriy qilingan (Qashqadaryo viloyat hokimligining 2025-yil 6-noyabrdagi 07-07/9916-son ma'lumotnomasi). Ushbu natijalardan agrar sektor tizimi hajmining prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqishda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 12 ta, jumladan, 5 ta xalqaro, 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 24 ta ilmiy ish, shu jumladan, OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 12 ta maqola (10 ta respublika va 2 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 200 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va asosiy vazifalari, obekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga bogʻliqligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tarkibiy tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Mintaqada agrar sektorni optimal rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishning ilmiy-nazariy va uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida Optimal rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishda ekonometrik modellardan foydalanishning nazariy-uslubiy asoslari, mintaqada agrar sektorni optimal rivojlantirish mexanizmini taraqqiyoti evolyutsiyasi va mintaqada agrar sektorni optimal rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishning xorijiy tajribalari toʻgʻrisida bayon etilgan.

Iqtisodiyotning har qanday tarmogʻini tashkil qilishdan oldin uni ishlab chiqarish jarayonini toʻliq qamrab olgan holda boshqarish vositalari maʼlum boʻlgan modelni shakllantirish talab qilinadi. Xususan Agrar sektoriqtisodiyotning ancha murakkab tarmoqlaridan biri boʻlib, uning atrof-muhit, ob-havo oʻzgarishlariga yuqori darajada bogʻliqligi, tarmoqda mahsulot etishtirishni koʻplab, miqdor va sifat koʻrsatkichlariga ega boʻlgan omillar taʼsiri ostida boʻlishini taʼminlaydi. Bu esa oʻz navbatida ular taʼsir darajasini baholash hamda nazarot qilish tizimlarini ishlab chiqishni talab qiladi.

Regression tahlil asosida hosil qilingan ekinni rivojlanish jarayonini tushuntirishiga asoslangan modelni boshqa sharoitlarga moslashtirish ancha murakkab boʻlsada, faqat uning javobini bilishga asoslangan murakkab mexanik modelga qaragandan ancha foydali hisoblanadi.

Tahlillarimizni davom qildirgan holda oʻsish tenglamalari va koʻrsatkichlariga eʼtibor qaratib oʻtamiz. Oʻsish indeksi konsepsiyasi iqlim koʻrsatkichi gʻoyasidan kelib chiqadi, bunda oʻsimlik yoki ekin atributlarining nisbiy rivojlanishi bir yoki bir nechta iqlim oʻzgaruvchilari funksiyasi sifatida ifodalanadi. Oldingi davrda Braziliyada amalga oshirilgan qishloq xoʻjaligini rivojlantirishning asosiy qismi namlik ideksi yoki hududning qurgʻoqchilik indeksi kabi oʻsish indeksi yoki qurgʻoqchilik koʻrsatkichlariga asoslanadi².

Ilmiy tadqiqot ishlarida oʻsish ideksi koʻrinishi quyidagi shaklda ifodalangan³:

$$GI = TI * LI * MI \quad (1)$$

Bu erda: GI – oʻsish indeksi (maʼlum hududda erishish mumkin boʻlgan maksimal mahsuldorlikning ulushi); LI – yorugʻlik indeksi; TI – harorat ideksi; MI – havoning nisbiy namligi indeksi.

LI, TI va MI mos ravishda hosil olish sikli davomida kuzatilgan quyosh radiatsiyasi, qayd qilingan harorat darajasi va yogʻingarchilik/bugʻlanish sharoitlarini ifodalaydi va maksimal hosildorlikni taʼminlaydi.

² OMETTO, J.C. Bioclimatologia vegetal. São Paulo: Agronômica Ceres, 1981. 440p.

³ FITZPATRICK, E.A.; NIX, H.A. The climatic factor in Australian grassland ecology. In: MOORE, R.M. (Ed.) **Australian grasslands**. Canberra: Australian National University Press, 1970.

Shuningdek haqiqiy hosilni hisoblash uchun FAO tomonidan quyidagi modeldan foydalanilgan⁴:

$$\left(1 - \frac{Y_a}{Y_x}\right) = K_y \left(1 - \frac{ET_a}{ET_x}\right) \quad (2)$$

Bu yerda Y_x – olish mumkin bo‘lgan maksimal hosil miqdori; Y_a – haqiqiy hosil miqdori; ET_x – maksimal evapotranspiratsiya; ET_a – haqiqiy evapotranspiratsiya; K_y – evapotranspiratsiya pasayishining hosil yo‘qotishlariga ta‘sirini ifodalovchi rentabellikka javob beruvchi omil.

Keltirilgan modelni indekslar asosida shakllantirilgan model deb hisoblash mumkin chunki, uning tarkibiy qismlari: $K_y \cdot (1 - \text{erkli o‘zgaruvchi } ET_a/ET_x)$ suv tanqisligini ifodalovchi indeks va $(1 - Y_a/Y_x)$ kuzatilgan hosildorlik va potensial unumdorlik orasidagi munosabatni ifodalovchi indekslardan iborat bo‘lib, ular orasidagi bog‘liqlikni o‘rganadi.

Mahsulotlar o‘shishini dinamik ravishda simulyatsiya qilish modellarini ishlab chiqishda o‘simlikning har qanday bosqichidagi holatini miqdoriy ravishda aniqlangan o‘zgaruvchan o‘zgaruvchilarning raqamli qiymatlari bilan tavsiflash mumkin deb taxmin qilinadi⁵.

Jarayonlarning tavsifini holat tavsifiga aylantirish model tuzuvchini qachon muvaffaqiyatga erishishini aniqlashga yordam beradi. Pomidorni o‘shish va rivojlanish dinamik simulyatsiya modelini E.Heuvelink (1999) ilmiy tadqiqot ishlarida ko‘rish mumkin⁶. Dinamik simulyator modelining qisqacha tavsifi quyidagicha:

$$MCS_t = MCS_{t-1} + TCC_t * \Delta t \quad (3)$$

Bu yerda: MCS_t – t vaqtidagi hosilning quruq massasini nazarda tutadi; MCS_{t-1} – $t-1$ vaqtidagi massasi; TCC_t - t vaqtdagi ekinning o‘shish darajasi; Δt - vaqt oralig‘i (kunlar).

Matematik jihatdan TCC_t quyidagi ko‘rinishda ifodalanadi:

$$TCC_t = EC(FC_t - M * MCS_t) \quad (4)$$

Bu yerda EC – massadagi fotosintez materiallarini aylantirish samaradorligi, FC_t - t vaqtdagi o‘simlikning yapli fotosintez tezligi, M hosilning fiziologik jarayonlarni saqlash koeffitsiyenti

$$FC_t = F_{MAX} * LAI_t * FL * F \quad (5)$$

Bu yerda: F_{MAX} – ideal sharoitlar uchun maksimal fotosintez tezligi; LAI_t – o‘sha kundagi barglar maydoni indeksi, FL – kecha va kunduz uzunliklari o‘rtasidagi nisbat; F – atrof-muhit sharoitlari uchun F_{MAX} ni sozlash koeffitsiyenti.

Amaliy modellar nuqtai nazaridan empirik model odatda tizimning soddalashtirilgan matematik modeli bo‘lib, bir qator o‘zgaruvchilarni qamrab oladi. Iqlim funksiyasi sifatida ekinlarni prognoz qilish modellarining aksariyati milliy

⁴ FOOD AND AGRICULTURE ORGANIZATION OF THE UNITED NATIONS Rome, 2012.

⁵Hundal, Sukhdev & Kaur, Harpreet & Ghahreman, Nozar. Dynamic crop simulation models and their applications: Indian experience with DSSAT models. 2010.

⁶ E.Heuvelink. Evaluation of a Dynamic Simulation Model for Tomato Crop Growth and Development. Annals of Botany Volume 83, Issue 4, April 1999, Pages 413-422

hukumat darajasidagi empirik modellar hisoblanadi. Bu kabi modellar foydali analitik vositalar bo‘lishiga qaramay, ularda reallik va umumiylik etishmasligi kuzatiladi, yani ular maxsus sharoitda yaratilgani bois boshqa sharoitlarda etarli darajada yaxshi natija bermaydi.

Qishloq xo‘jaligini modellashtirishda jarayonni ifodalovchi modellarni qo‘llanilishi soha rivojini va mavjud salohiyatdan samarali foydalanishni ta‘minlashga xizmat qildi. Mazkur modellar odatda hosilning quyidagi omillar ta‘sirida o‘zgarishini baholash uchun foydalanilgan:

- meteorologik: yorug‘lik, issiqlik va suv;
- cheklanganlik: moddalar va suvning etraliligi, toksik elementlarning mavjudligi va tuproqning fizik xususiyatlari;
- biologik: hasharotlar, kasalliklar va boshqa o‘simliklar bilan raqobat.

Jahon amaliyotida soya ekinlariga tadbiq etiladigan modellarni ishlab chiqilishi qishloq xo‘jaligida modellashtirishning rivojlanishi evolyutsiyasida o‘z o‘rniga ega bo‘lib, qator modellar ishlab chiqilgan. Xususan, soya ekinlari uchun ishlab chiqilgan dinamik simulyatsiya modellari xalqaro darajada eng keng tarqalgan modellar hisoblanadi: (1) GLYCIM⁷; (2) SOYMOD⁸; (3) SOYGRO⁹. Ushbu modellar kirish parametrlari, foydalanilgan jarayonlar va chiqish parametrlariga nisbatan tavsiflangan.

Idel amaliy model: Texnologiyalarning rivojlanishi atmosferani boshqarish imkoniyatlarini doimiy ravishda oshirib kelmoqda. Ushbu yutuqlar tadqiqotchi uchun ham, resurslarni boshqaruvchilar uchun ham yangi mavzularni ochib berdi. Qator ilmiy tadqiqotlarda mavjud modellar atmosferadagi karbonat angidrid konsentratsiyasining o‘zgarishi javob izlash kabi hali shakllanmagan yoki ishlab chiqilgan yo‘nalishlar bo‘yicha javob olish uchun ishlatilganligini tasdiqlashadi.

Shaxsiy kompyuterlarni rivojlanishi va ulardan foydalanishning kengayishi bilan bir qatorda resurslarni boshqarishda ideal modellardan foydalanish bo‘yicha ba‘zi g‘oyalar ilgari surildi va ularni quyida keltirib o‘tamiz¹⁰.

Bular:

- Sezgir boshqaruvchiga ega o‘simliklarni o‘sish jarayonlariga asosiy zamonaviy biologik konsepsiyalarni kiritish;
- Har qanday vaqt oralig‘i, har qanday kosmik o‘lchovdan foydalangan holda, har xil miqyosda ishlashga qodir bo‘lish;
- Ko‘chma yoki hech bo‘lmaganda mikrokompyuterlar uchun mos matematikani taqdim etish;

⁷ ACOCK, B.; REDDY, V.R.; WHISLER, F.D.; BAKER, D.N.; MCKINION, J.M.; HODGES, H.F.; BOOTE, K.F. The soybean crop simulator GLYCIM: model documentation. Washington: USDA, 1985.

⁸ MEYER, G.E.; CURRY, R.B.; STREETER, J.G.; MEDERSKI, H.J. SOYMOD/OARDC: a new dynamic simulator of indeterminate soybean growth, development and seed yield: I. theory, structure and validation. Ohio Agricultural Research and Development Center, 1979. (Research Bulletin, 1113), MEYER, G.E.; CURRY, R.B.; STREETER, J.G.; BAKER, C.H. Simulation of reproductive processes and senescence in indeterminate soybeans. Transactions of the ASAE, v.24, p.421, 1981.

⁹ JONES, J.W.; BOOTE, K.J.; JAGTAP, S.S.; HOOGENBOOM, G.; WILKERSON, G.G. SOYGRO v.5.41: soybean crop growth simulation model. Gainesville: University of Florida. Agricultural Engineering Department and Agronomy Department, 1988. 53p. (Florida Agricultural Experiment Station Journal, 8304).

¹⁰ JOYCE, L.A.; KICKERT, R.N. Applied plant growth models for grazinglands, forests and crops. In: WISIOL, K.; HESKETH, J.D. Plant growth modeling for resource management: current models and methods. Boca Raton: CRC Press, 1987. v.1, p.141-156

- Kirish ma'lumotlarining minimal sonini talab qilish va hisob-kitoblarni minimal vaqt ichida bajarish;

- Dalada o'simliklar rivojlanish jarayonlarini to'liq tavsiflash uchun modelni yaxshi amalga oshirilgan tajribalar, shu jumladan biologik tizimni ifodalovchi diagrammalar, kompyuterlashtirilgan dasturiy ta'minotning mantiqiy diagrammasi va dasturlash kodi bilan asoslash;

- Kam xarajat bilan amalga oshirish.

Yakuniy tahlilga ko'ra ideal model ushbu holatda boshqaruvning maxsus harakatiga mos keluvchi prognoz natijalarini berish talab etiladi. Ushbu yondashuvlar o'lchovlarni aniqlash va boshqaruv doirasida ishlaydigan mutaxassislar uchun ko'proq usullardan foydalanish imkoniyatini yaratish uchun muhimdir.

Model bu ma'lumotlarni modernizatsiya qilish, o'lchash jarayonlarini anglatadi va tadqiqotchilarni keyinchalik ishlaydigan murakkab tizimlar haqida ko'proq ma'lumotga ega bo'lishiga yordam beradi.

Kundan kunga modellar ma'lumotlarni foydali bilimlarga aylantirish va boshqalarga etkazish uchun eng yaxshi mexanizmga aylanib boradi.

Modellashtirishning kengroq taraqqiyotiga halaqit qiladigan muammolardan biri bu reallikni global miqyosda tasavvur qila oldigan modelchilarni etishmasligidir.

Biroq amaliyotda mazkur modellardan qishloq xo'jaligida mahsulot etishtirish hajmini oshirish, resurslardan optimal foydalanish yo'nalishlarini aniqlash maqsadida keng qo'llanib kelinmoqda. Xususan, GLYCIM modelidan foydalangan holda Tailandda ekinlarni ekish sanasi va soya hosildorligiga iqlim ta'sirini simulyatsiya qilish va baholash¹¹, Missisipi deltasida paxta etishtirishga iqlim o'zgarishining ta'sirini simulyatsiya qilish¹², Hisor sharoitida soya ekinlari uchun "SOYGRO" modelini baholash va undan foydalanish masalalari qarab chiqilgan¹³, Panjabda soya o'sishi va hosildorligini baholsha uchun "SOYGRO" modelidan foydalanish¹⁴ holatlarini uchratish mumkin.

Fikrimizcha, sug'orma dehqonchilikka asoslangan va bugungi kunda resurslar, xususan suv tanqisligi o'z kuchini ko'rsatayotgan bir davrda mamlakatimizda Agrar sektormahsulotlarini etishtirish jarayonlariga ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribalarini qo'llash, omillar ta'sirini baholash, resurslardan samarali foydalanish yo'nalishlarini ishlab chiqishda yuqorida keltirib o'tilgan modellardan foydalanish, ularni mamlakatimiz sharoitlarini inobatga olgan holda takomillashtirish qishloq xo'jaligini rivojlantirishdagi muhim va istiqbolli yo'nalishlardan sanaladi.

Dissertatsiyaning **"Qashqadaryo viloyatida agrar sektorni mintaq*aq* iqtisodiyotiga ta'sirini baholashning ekonometrik modellari"** nomli ikkinchi bobida agrar sektorni optimal rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarni tasnifini ishlab

¹¹ Lokhande, Suresh & Timlin, Dennis & Salokhe, V.M. & Reddy, Vangimalla. (2013). Simulation and assessment of planting date and climatic effects on Soybean (*Glycine Max L.*) yields in Thailand using GLYCIM. *Journal of Tropical Agriculture*. 51. 30-41.

¹² Reddy, K. Raja, Prashant R. Doma, Linda O. Mearns, Mariquita Y. L. Boone, Harry F. Hodges, Alec G. Richardson, and Vijaya Gopal Kakani. "Simulating the Impacts of Climate Change on Cotton Production in the Mississippi Delta." *Climate Research* 22, no. 3 (2002): 271-81. Accessed July 21, 2021. <http://www.jstor.org/stable/24868327>.

¹³ Singh, Raj & Singh, Diwan & Shekhar, Chander & Mani, Jugal Kishore. (2010). Evaluation of "SOYGRO" model for soybean crop under Hisar conditions. *Journal of agrometeorology*. 12. 121-122.

¹⁴ Hundal, Sukhdev. (2004). Calibration and application of the "SOYGRO" model to predict growth and yield of soybean in Punjab. *Journal of agrometeorology*. 6. 85-91.

chiqish, Qashqadaryo viloyatida agrar sektorni optimal rivojlantirish tendensiyasining statistik tahlili va agrar sektorni mintaqa ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga ta'sirini baholashning ekonometrik modellari bayon etilgan.

O'rganishlarimiz natijalariga ko'ra mamlakatimizda qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi subyektlar qator mezonlar bo'yicha bir-biridan farq qiladi. Bulardan asosiylarini 1-jadvalda keltirib o'tilgan.

1-jadval

Qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorida mahsulot ishlab chiqaruvchi asosiy subyektlar turlari va xususiyatlari¹⁵

	Dehqon xo'jaliklari	Fermer xo'jaliklari	Shirkat xo'jaliklari
Ta'rifi	Katta bo'lmagan va yordamchi uchastkalarga asoslangan qisman tovar ishlab chiqaruvchi xo'jalik	Yuridik shaxs sifatida tashkil etilgan yuqori tovar ishlab chiqaruvchi xo'jalik	A'zolik ulushiga asoslangan yirik korporativ xo'jalik
Yuridik maqomga egaligi	Faoliyatini istagiga ko'ra yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin	Yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt	Yuridik shaxs huquqlariga ega mustaqil xo'jalik yurituvchi subyekt
Ishchi kuchi	Oila a'zolari	Oila a'zolari, yollanma ishchilar	A'zolar, yollanma ishchilar
Yerga egalik	Umrbod egalik qilish va meros qilib qoldirish	Uzoq muddatli ijara (10-50 yil)	Doimiy egalik
Mulkdorlar	Qishloq xo'jalik korxonalarini xodimlari, qishloq xizmatchilari, pensionerlar	Yetarlicha qishloq xo'jalik malakasi va tegishli tajribaga ega har qanday voyaga etgan shaxs	A'zolar
Ixtisosla-shishi	Meva, Sabzavot, chorvachilik mahsulotlari	Barcha qishloq xo'jalik mahsulotlari	Asoson bug'doy va paxta
Tarixiy ildizga egaligi	Oldindan mavjud	Mustaqillikdan keyingi davrda shakllangan	Oldindan mavjud
Boshqaruv	Maxsus ko'nikmalarga ega bo'lish shart emas	Maxsus bilim va ko'nikmaga ega bo'lish lozim	Maxsus bilim va ko'nikmaga ega bo'lish lozim
Qishloq xo'jaligini tartibga solish	Unchalik ahamiyatli emas, bilvosita ta'sirga ega	Ahamiyatli, to'g'ridan – to'g'ri ta'sirga ega	Ahamiyatli, to'g'ridan – to'g'ri ta'sirga ega
Yer va ishchi kuchidan foydalanish samaradorligi	Yuqori	Nisbatan past	Past

Agrar sektor iqtisodiyotning tayanch tarmoqlaridan biri ekanligi, hudud ijtimoiy-iqtisodiy rivojida alohida ahamiyatga egaligi ilmiy tadqiqot ishlarimiz davomida o'z tasdig'ini topdi. Shuningdek, agrar sektorning yalpi hududiy mahsulot (YAHM)dagi

¹⁵ Muallif ishlanmasi

ulushining deyarli sezilarli o'zgarishsiz saqlanib qolayotgani, tarmoq va sohalari rivojida ham barqarorlikning mavjudligi aynan agrar sektorning hudud ijtimoiy-iqtisodiy o'sishiga ta'sirini oshishiga xizmat qilmoqda. Tarmoqning YAHMdagi ulushi 2015-yilda 51,9 foizni tashkil qilgan bo'lsa, 2025-yilga kelib ushbu ko'rsatkich 48,5 foizni tashkil qilgan holda 3.4 foizga pasaygan xolos va YAHMning deyarli yarmini tashkil qilmoqda.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda Qashqadaryo viloyatida YAHM o'sishiga tarmoqlar ta'sirini qarab chiqildi, ya'ni ta'minlangan o'sishning qanchalik qismi qaysi tarmoqqa tegishli bo'lganligi aniqlandi. Biroq YAHMni shakllanishida mahsulotga sof soliqlar ulushi ham mavjudligini inobatga olgan holda dastavval sof soliqlar va tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati ta'sirini aniqlab oldik (1-rasm).



1-rasm. Qashqadaryo viloyatida YAHM o'sishiga tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati va sof soliqlarning ta'siri.¹⁶

YAHM o'sishiga tarmoqlar ta'sirini ajratib olgan holda ularning o'zgarish dinamikasi va bu jarayonda agrar sektorning hissasini qarab chiqildi (2-jadvalga qarang). Hisob-kitob natijalariga ko'ra viloyatda YAHM o'sishiga agrar sektorning ta'siri etarli darajada yuqori qiymatga ega, biroq soha barqarorligining o'zgarishiga mos ravishda ta'sirning ham o'zgarib turganligini kuzatiladi.

2-jadval

Qashqadaryo viloyatida YAHM o'sishi tarmoqlardagi o'sish ta'sirini baholash bo'yicha amalga oshirilgan omilli tahlil natijalari¹⁷

	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	6.5	6.7	9.3	9.8	7.6	8.9	4.8	4.3	2.9	5.4	2.3
Qishloq o'rmon va baliq xo'jaligi	1.2	0.2	4.9	4.6	3.1	2.7	3.5	0.7	-0.9	1.8	1.4
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	1.9	2.6	1.6	2.8	2.1	3.9	-0.7	2.5	1.8	2.0	0.6
Sanoat	0.5	1.1	0.5	1.0	2.2	2.9	-0.8	2.1	1.0	0.9	0.4
Qurilish	1.4	1.6	1.1	2.0	0.2	1.0	0.1	0.4	0.8	1.1	0.2
Xizmatlar	3.8	3.8	2.8	2.6	2.4	2.5	2.3	1.2	2.0	1.7	0.3

¹⁶ Muallif ishlanmasi

¹⁷ Muallif ishlanmasi

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1.2	1.1	0.5	0.7	0.5	0.5	0.5	0.3	0.7	0.5	-0.3
Tashish va saqlash, axborot va aloqa	1.7	1.1	0.9	0.6	0.6	0.7	0.7	0.4	0.2	0.3	0.1
Boshqa xizmat tarmoqlari	1.0	1.5	1.4	1.3	1.3	1.3	1.1	0.5	1.2	0.9	0.5

Jadval ma'lumotlariga 2015-yilda YAHMning oldingi yilga nisbatan o'sishi 7,1 foizni tashkil qilgan bo'lsa, shu qiymatning 1,2 foizi agrar sektor hissasiga to'g'ri kelgan. Boshqacha qilib aytganda umumiy o'sishning 16,9 foizi agrar sektor evaziga ta'minlangan. Tarmoqning YAHM o'sishi ta'siri ancha beqaror bo'lib, eng yuqori qiymatiga 2021-yilda erishgan ya'ni YAHM 4,8 foizga o'sgani holda uning 3,5 foizi agrar sektor hissasiga to'g'ri kelgan. Boshqacha aytganda yalpi o'sishning 70,2 foizi agrar sektor hissasiga to'g'ri kelgan. E'tiborlisi shundaki, 2025-yilda ham agrar sektorning YAHM o'sishiga ta'siri ancha katta bo'lganligini kuzatish mumkin. YA'ni YAHM 2,3 foizga o'sgan bo'lsa, shuning 1,4 foizi aynan agrar sektor sohasiga to'g'ri kelgan.

Agrar sektorni YAHMdagi salmoqli ulushi hamda ijtimoiy-iqtisodiy o'sishga sezilarli ta'siri uning hududdagi asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlarni shakllantirish hamda ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda ahamiyatliligini ta'minlaydi. Ushbu ta'sirlarni aniq usullar asosida baholash hamda miqdorlar bilan ifodalash uchun korrelyatsion tahlilni amalga oshirilgan bo'lib, mazkur tahlilni amalga oshirish uchun 2015-2025-yillar ma'lumotlaridan foydalanildi(3-jadval). Qiymat ko'rinishidagi ma'lumotlar 2015-yil bazis yil sifatida qabul qilingani holda real qiymatlarga o'tkazildi. Tahlil natijalariga ko'ra agrar sektorda etishtirilgan mahsulot miqdori bilan YAHM orasidagi korrelyatsion bog'liqlik juda kuchli bo'lib, u 0,99 ga teng. Shuningdek, agrar sektorda etishtirilgan mahsulotning real qiymati, sanoat mahsulotlari qiymati hamda ko'rsatilgan xizmatlar hajmi bilan kuchli bog'liq ekanligini ko'rish mumkin va ular mos ravshida 0,99 va 1,00 ga teng bo'lmoqda.

3-jadval

Agrar sektorning va asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlar orasidagi korrelyatsiya koeffitsiyentlari¹⁸

	<i>X1</i>	<i>X2</i>	<i>X3</i>	<i>X4</i>	<i>X5</i>	<i>X6</i>	<i>X7</i>	<i>X8</i>	<i>X9</i>	<i>X10</i>	<i>X11</i>
<i>X1</i>	1.00										
<i>X2</i>	0.99	1.00									
<i>X3</i>	0.99	0.96	1.00								
<i>X4</i>	1.00	0.97	0.99	1.00							
<i>X5</i>	0.58	0.65	0.50	0.55	1.00						
<i>X6</i>	0.74	0.64	0.80	0.77	-0.07	1.00					
<i>X7</i>	0.98	0.95	0.98	0.99	0.51	0.80	1.00				
<i>X8</i>	-0.50	-0.57	-0.43	-0.48	-0.65	-0.10	-0.42	1.00			
<i>X9</i>	-0.88	-0.81	-0.91	-0.90	-0.25	-0.92	-0.92	0.23	1.00		

¹⁸ Muallif ishlanmasi

X10	0.81	0.73	0.86	0.84	0.14	0.94	0.85	-0.11	-0.95	1.00	
X11	0.78	0.73	0.81	0.80	0.09	0.87	0.79	-0.26	-0.88	0.82	1.00

X1 – Yalpi milliy mahsulotning real qiymati milliard so‘mda, X2 – agrar sektor mahsulotining real qiymati milliard so‘mda, X3 – sanoat mahsulotining real qiymati milliard so‘mda, X4 – ko‘rsatilgan xizmatlarning real qiymati milliard so‘mda, X5 – bandlik darajasi foizda, X6 – ishsizlik darajasi foizda, X7 - Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar ming so‘mda, X8 – eksport hajmi million dollar, X9 - paxta tolasi eksport hajmi million dollar, X10 - oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmi million dollar, X11 - to‘qimachilik va to‘qimachilik mahsulotlari eksport hajmi million dollar.

Korrelyatsion tahlil natijalari agrar sektorning viloyat ijtimoiy – iqtisodiy rivojiga ta’siri juda yuqori ekanligini, shuningdek tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirishda muhim ahamiyatga egaligini asoslamoqda. Bundan tashqari agrar sektorni rivojlanishi uchun shunga mos ravishda sanoat hamda xizmat ko‘rsatish sohalarini ham rivojlantirish talab qilinadi. Keltirilgan ko‘rsatkichlar orasidagi bog‘liqlik darajasini regression tahlil asosida aniq raqamlarda qarab chiqamiz.

Dastavval YAHM hajmiga iqtisodiyot tarmoqlaridagi o‘zgarishning ta’sirni qarab chiqamiz. Amalga oshirilgan regression tahlil natijalariga ko‘ra quyidagi ko‘rinishdagi modelga ega bo‘lindi.

$$GRP = 346.7 + 1.3 * AGR + 1.2 * IND + 0.2 * SER \quad (6)$$

$$se = (132.1) \quad (0.11) \quad (0.28) \quad (0.08)$$

$$t = (2.62) \quad (11.55) \quad (4.23) \quad (2.53)$$

Bu yerda: GRP – Yalpi hududiy mahsulotning real qiymati mlrd. so‘mda, AGR – agrar sektorda yaratilgan mahsulotning real qiymati mlrd. so‘mda, IND – sanoatda yaratilgan mahsulotning real qiymati mlrd. so‘mda, SER – ko‘rsatilgan xizmatlarning real qiymati mlrd. so‘mda.

Aniqlangan modelning koeffitsiyentlari adekvatligini tekshirish maqsadida Styudent test natijalari keltirib o‘tilgan bo‘lib, barcha koeffitsiyentlar jadval qiymatidan yuqori bo‘lmoqda. Determinatsiya koeffitsiyentining 0,99 ga teng bo‘lishi natijaviy omildagi umumiy o‘zgarishni tanlab olingan ta’sir omillar to‘liq tavsiflashini asoslamoqda.

Yuqoridagi mezonlar natijalariga asoslangan holda modeldan foydalanamiz va xulosalarni keltirib o‘tmoqchimiz. YA’ni viloyatda agrar sektorda mahsulot etishtirish hajmini bir milliard so‘mga oshirilishi YAHM hajmini 1,3 milliard so‘mga oshirishini ta’minlaydi. Sanoat va xizmat ko‘rsatishdagi o‘zgarish esa mos ravishda 1,2 va 0,2 milliard so‘mga oshiradi. Bundan ko‘rinadiki, viloyatda YAHM miqdorini oshirishda agrar sektor asosiy ahamiyatga ega bo‘lgan tarmoqlardan hisoblanadi.

Yuqorida keltirilgan ta’sirlarni elastiklik koeffitsiyenti va o‘sish sur’atlari bo‘yicha qarab chiqish maqsadida darajali funksiyani ham ishlab chiqqanmiz va u quyidagi ko‘rinishga ega bo‘lmoqda.

$$GRP = 14.6 * AGR^{0.40} * IND^{0.18} * SER^{0.2} \quad (7)$$

$$se = (0.21) \quad (0.04) \quad (0.03) \quad (0.03)$$

$$t = (12.77) \quad (9.23) \quad (5.58) \quad (5.99)$$

Ushbu keltirilgan darajali funksiyaning ham barcha koeffitsiyentlari Styudent va Fisher mezonlari bo‘yicha adekvat, determinatsiya koeffitsiyenti ham 0,99 ga teng.

Boshqa zaruriy natijalar 2-ilovada keltirib o‘tilgan bo‘lib, ular ham talab darajasida. Ushbu model bo‘yicha aniqlangan darajalar elastiklik koeffitsiyentini ifodalaydi. YA’ni agrar sektorni bir foizga oshishi YAHMni 0,4 foizga oshishini ta’minlagan holda eng yuqori qiymatga ega bo‘lmoqda. Sanoat va xizmat ko‘rsatish hajmini bir foizga oshishi o‘z navbatida YAHMni 0,18 va 0,20 foizga oshishi sabab bo‘ladi. Bundan ko‘rinadiki agrar sektorda o‘shishni ta’minlash YAHMni oshirishning eng maqbul yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Agrar sektorda mahsulot etishtirish hamda uni eksportini amalga oshirish aholi real daromadlarini oshirishga xizmat qiladi. Regression tahlillar ushbu fikrimizni tasdiqlamoqda.

$$\begin{aligned} \ln(RINC) &= 1.05 * \ln(AGR) + 0.06 * \ln(FOODex) \\ se &= (0.004) \quad (0.014) \\ t &= (239.5) \quad (4.34) \end{aligned} \quad (8)$$

Bu yerda: RINC - Aholi jon boshiga real umumiy daromadlar ming so‘mda, FOODex - oziq-ovqat mahsulotlari eksport hajmi million dollar.

Fikrimizcha, agrar sektor mahsulotlarini chuqur qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalarini tashkil qilinishi agrar sektorda rentabellik darajasini oshirish hamda aholi real daromadlarini ko‘tarilishiga olib keladi.

Yuqorida amalga oshirilgan korrelyatsion tahlil natijalariga ko‘ra tanlab olingan ko‘rsatkichlar orasida yuqori korrelyatsion bog‘liqlik mavjud bu omillar ta’sirini aniqlashda multikollinearlik muammosini keltirib chiqargani holda ko‘p omilli modellardan foydalanish imkoniyatini cheklaydi. Shu sababli agrar sektorda mahsulot etishtirish hajmini viloyatdagi asosiy ijtimoiy iqtisodiy ko‘rsatkichlarga ta’sirini alohida qarab chiqishni maqsadga muvofiq deb topdik. Ushbu yo‘nalishda amalga oshirilgan regression tahlil natijalarini keltirib o‘tamiz (4-jadvalga qarang).

4-jadval

Regression tahlil natijalari¹⁹

No	Model	se	t-statistika	R2	Elastiklik koeffitsiyenti
1	$\ln AGR = 4.72 + 0.42 \ln IND$	b1=0.2089 b2=0.0324	22.6 13.0	0.94	0.42
2	$\ln AGR = 4.82 + 0.35 \ln SER$	b1=0.1566 b2=0.0206	30.8 16.71	0,97	0.35
3	$\ln RINC = -4.95 + 1.72 \ln AGR$	b1=1.2010 b2=0.1614	-4.1 10.68	0,93	1.72
4	$\ln FOODex = -73.6 + 10.1 \ln AGR$	b1=11.0884 b2=1.4911	-6.64 6.78	0,84	10.1
5	$\ln FOODex = -26.58 + 4.4 \ln IND$	b1=4.1742 b2=0.6482	-6.37 6.74	0,83	4.4
6	$\ln FOODex = -25.64 + 3.6 \ln SER$	b1=3.7053 b2=0.4893	-6.92 7.34	0,86	3.6
7	$EM = 8.71 \ln AGR$	b1=0	0	0,99	0.087

¹⁹ Muallif ishlanmasi

Leontivning tarmoqlararo balans modelidan ma'lumki iqtisodiyot tarmoqlarining rivoji o'zaro bir-biri bilan bevosita bog'liq bo'lib ularni mutanosib ravishdagi taraqqiyotini ta'minlanmasa iqtisodiyotda barqaror o'sishga erishib bo'lmaydi. Olingan natijalarga ko'ra viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishni bir foizga oshirilishi qishloq xo'jalik mahsulotlari etishtirish hajmini 0,42 foizga oshiradi. Ko'rsatilgan xizmatlar hajmidagi o'zgarish 0,35 foizga o'zgarishni ta'minlaydi.

Agrar sektor YAHM va bandlik darajasidagi yuqori ulushi uning aholi bandligi va daromadlarini ta'minlashdagi o'ziga xos ahamiyatiga sabab bo'ladi. Ta'sirini baholash bo'yicha olib borilgan tahlil natijalariga ko'ra agrar sektorda mahsulot etishtirish hajmini bir foizga oshirilishi aholi jon boshiga real umumiy daromadlar 1,7 foizga oshishiga olib keladi. Agrar sektorda barqaror o'sishni ta'minlagan holda etishtirilgan mahsulotlarni yuqori qo'shilgan qiymatga aylantirish asosida hudud eksport salohiyatini oshirish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Buning uchun nafaqat agrar sektor balki unga xizmat ko'rsatuvchi, mahsulotlarni qayta ishlovchi sanoatni ham mos ravishda taraqqiyotini ta'minlash talab qilinadi.

Shu sababli oziq-ovqat eksportiga tarmoqlar ta'sirini elastiklik koeffitsiyenti asosida qarab chiqildi. Natijalarga ko'ra qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish hajmi bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti juda yuqori bo'lib, 10,1 ga teng ekanligi aniqlandi. Bundan tashqari oziq – ovqat mahsulotlari eksport hajmiga sanoat va xizmat ko'rsatish hajmining ta'siri ham ancha yuqori ekanligini kuzatish mumkin, ya'ni bular bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti mos ravishda 4,4 va 3,6 ni tashkil qilmoqda. Bu kabi yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lishning asosiy sabablaridan biri keyingi davrda hukumatimiz tomonidan ushbu yo'nalishga alohida e'tibor qaratilayotganligi va uning ko'rsatkichlarida keskin o'sishni ta'minlanayotganligidir.

So'ngi modelda bandlik darajasi bilan agrar sektorda mahsulot etishtirish hajmi orasidagi bog'liqlik qarab chiqilgan bo'lib, bandlik darajasi foizda, agrar sektorda etishtirilgan mahsulot hajmi qiymatda bo'lganligi sababli lin-log modeldan foydalanildi. Ushbu model bo'yicha aniqlangan koeffitsiyenti 0,01 birga ko'paytiradigan bo'lsak, ikkala ko'rsatkich orasidagi elastiklik koeffitsiyentiga teng bo'ladi. Ikkala ko'rsatkich orasidagi elastiklik koeffitsiyenti 0.087 ni tashkil qilgani holda musbat qiymatga ega bo'lmoqda, biroq ancha kichik. Chunki agrar sektorni mexanizatsiyalash hamda sanoat va xizmat ko'rsatishni rivojlanishi agrar sektorda band bo'lgan aholini ushbu sohalarga o'tishini ta'minlamoqda. Bu esa agrar sektorda etishtirilgan mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash tizimini rivojlanishi va yaratiladigan qiymatni oshishiga xizmat qilmoqda.


Tahlil natijalariga ko'ra hududda YAHMning o'sishida agrar sektor ta'sirini oshishi, xususan pandemiya sharoitida keskin o'sishi kuzatilgan. Shuningdek, korrelyatsion tahlil natijalari hududda boshqa tarmoqlar rivoji, aholi bandligi va daromadlari, eksport salohiyati bevosita agrar sektor bilan bog'liq ekanligini tasdiqladi. Regression tahlil natijalari YAHM bilan agrar sektor mahsuloti hajmi orasidagi elastiklik koeffitsiyenti 0,4 ga teng ekanligini ko'rsatmoqda. Aholi daromadlari, oziq – ovqat eksportini oshirishda agrar sektorning ahamiyati juda katta

ekanligi ko'rsatkichlar orasidagi elastiklik koeffitsiyenti katta ekanligini ya'ni mos ravishda 1,7 va 10,1 ga teng ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Qashqadaryo viloyatida agrar sektorni optimal rivojlantirishda agrar sektor mahsulotlari samaradorligini oshirishni modellashtirish metodologiyasi”** deb nomlangan uchinchi bobida mamlakatda agrar sektorni optimal rivojlantirishning xavfsizlig darajasi mezonlari va ko'rsatkichlari, agrar sektorni optimal rivojlantirish mexanizmining samaradorligini oshirishni modellashtirish metodikasi va Qashqadaryo viloyatida agrar sektorni optimallashtirishda iqtisodiy va tibbiy omillar bog'liqligi tahlili keltirib o'tilgan.

Mamlakatdagi oziq-ovqat xavfsizligining umumiy ahvolini aholi jon boshiga o'rtacha ko'rsatkichlar yordamida baholash mumkin. Shu bilan birga, ushbu yondashuv mamlakatning butun aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlashga erishish uchun batafsilroq o'rganish, tahlil qilish va vakolatli boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun barcha zarur ma'lumotlarni taqdim etmaydi. Oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish qobiliyati asosan aholi daromadlari darajasiga bog'liq ekanligi sababli, turli xil ijtimoiy toifadagi diyetalar sezilarli darajada farq qiladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish mavsumiyligini e'tiborga olgan holda simulyatsiya tajribasining umumiy davomiyligi 10 yil=360Tga teng qilib belgilingan bo'lib, ikki vaqt oralig'iga bo'lingan, birinchi interval - kuz, qish, erta bahor fasllari tanlab olinadi. Bu vaqt oralig'ida omborlar, mahsulotlarni qayta ishlash utsaxonalari, o'g'itlar, urug'lar va boshqalarni sotib olish, shuningdek birlamchi mahsulotlar hamda qayta ishlangan mahsulotlarni sotish, kredit olish va qaytarish kabi iqtisodiy faoliyat sodir bo'lishi kuzatiladi. Ikkinchi interval bahor oxiri, yoz va kuzning boshi bo'lib, bu vaqt oralig'ida, birinchi intervalda sodir bo'ladigan mashg'ulotlardan tashqari, o'sish va hosil yig'ish, agrotexnik tadbirlarni o'tkazish nazarda tutiladi. Birinchi intervalning davomiyligi 8 oy yoki 24T dekada, ikkinchisi 12T dekadaga teng.



2-rasm. Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligi mezonlari va ularning bog'liqligi mexanizmi²⁰

Iste'mol savatiga kiruvchi qishloq xo'jaligi mahsulotlarining yetishtirish jarayonining uchta moliyaviy, qishloq xo'jaligi mahsulotlari va ssenariy ma'lumotlar blokiga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqdir.

Moliyaviy blok:

$$XHP(t + T) = XHP(t) + (XHT(t) + D(t))T \quad (9)$$

bu yerda $XHP(t)$ – t vaqtidagi xo'jalik hisobidagi pul;

$XHT(t)$ - xo'jalik hisobiga tushumlar;

$D(t)$ - $[t, t+T]$ vaqt oralig'idagi hisobidan debet.

Model oralig'i $T=1$ bo'lganda $XHT(t)$ xo'jalik hisobiga tushumlar quyidagicha ifodalanadi:

$$XHT(t) = Q_0(t) * P_{j_0}(t) + Q_1(t) * P_{j_1}(t) + K(t) \quad (10)$$

bu yerda $Q_0(t) * P_{j_0}(t)$ - hosilni sotish ($Q_0(t)$ - joriy vaqt oralig'ida sotilgan miqdor, $P_{j_0}(t)$ - joriy narx);

$Q_1(t) * P_{j_1}(t)$ - qayta ishlangan mahsulotlarni sotish ($Q_1(t)$ - joriy vaqt oralig'ida sotilgan miqdor, $P_{j_1}(t)$ - joriy narx);

²⁰ Muallif ishlanmasi

$K(t)$ -qarz va boshqa mablag'lar, masalan, aksiyalarni sotishdan olingan subsidiyalar.

$D(t)$ hisobidan chegirma quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$D(t) = a(t) * p_a(t) + b(t) * p_b(t) + (\overline{\alpha p_a(t)}) + d(t) \quad (11)$$

bu erda $a(t) * p_a(t)$ - hosilni saqlash xarajatlari, $a(t)$ -saqlanadigan hosil miqdori, $p_a(t)$ -saqlash xarajatlari;

$b(t) * p_b(t)$ -qayta ishlangan mahsulotlarni saqlash xarajatlari, $b(t)$ -qayta ishlangan mahsulotlar miqdori, $p_b(t)$ -saqlash xarajatlari;

$(\overline{\alpha p_a(t)})$ - joriy agrokimyoviy xarajatlar, bu erda α - vektor, saqlash xarajatlarini hisobga olgan holda uning tarkibiy qismlari, sotib olingan o'g'itlar, o'simliklarni himoya qilish vositalari, urug'lar, o'g'itlar, va boshqalar birliklarining narxi.

$d(t)$ - joriy kredit to'lovlari

Ko'pgina holatlarda qishloq xo'jaligidagi o'z moliyaviy resurslarni jumladan, depozitlar, moliyaviy vositalar (valyuta, qimmatli qog'ozlar)ni sotib olish va ularni boshqarishni ham hisobga olish kerak. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish faoliyatida ishlab chiqarish balansi - *IchB* quyidagicha formula yordamida ifodalanadi:

$$IchB(t + T) = BIM(t) + (YOH(t) - SH(t) - JHY(t) - QIYM(t)) * T \quad (12)$$

bu yerda $BIM(t)$ -birlamchi ishlab chiqarish miqdori;

$YOH(t)$ -davr uchun yig'ib olingan hosil;

$SH(t)$ -davr uchun sotilgan hosil;

$JHY(t)$ -joriy hosil yo'qotilishi;

$QIYM(t)$ - qayta ishlashga yuborilgan asosiy mahsulotlar miqdori.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yig'ilgandan so'ng bir qismi birlamchi mahsulot sifatida bozorga olib chiqiladi ikkinchi qismi esa o'z navbatida qayta ishlashga jo'natiladi. Qayta ishlashga yuborilgan mahsulot miqdori – $QIYM(t)$ quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$QIYM(t + T) = QIM(t) + (BMQIF(t) - QIMY(t)) * T \quad (13)$$

bu yerda: $QIM(t)$ - qayta ishlangan mahsulot miqdori;

$QIMY(t)$ - qayta ishlangan mahsulotlarning yo'qotilishi;

$BMQIF(t)$ - boshlang'ich mahsulotlarni qayta ishlashning ishlab chiqarish funksiyasi bo'lib, u boshlang'ich mahsulot oqimiga, shuningdek, mavjud quvvatlarga bog'liq.

Fikrimizcha, qishloq xo'jalik ekinlarini o'sishi bevosita yerga tikilgan urug' - Uni t vaqt birligi ichida o'zgarishi deb qarash va shu asosda quyidagi tenglamani qabul qilish o'rinni.

$$\frac{du}{dt} = y_v u \left(1 - \frac{u}{E_s}\right) * e^{-Lt} \quad (14)$$

bu yerda y_v -o'sish tezligi;

E_s - atrof -muhitning ekologik salohiyati (tuproq unumdorligi) va e^{-Lt} - atamasi qarish deb talqin qilinadi. Bu tenglamani differensiallab echish mumkin bo'lgan quyidagi shaklga keltirish mumkin:

$$u(t) = \frac{u_0 * E_s}{u_0 + (E_s - u_0) \exp\left(-\frac{\gamma v (1 - e^{-Lt})}{L}\right)} \quad (15)$$

bu yerda u_0 – ekish uchun tanlangan urug‘lar soni deb hisoblanishi mumkin bo‘lgan boshlang‘ich qiymat. Ko‘rinib turganidek, cheklash qiymati $t \rightarrow \infty$ kabi deb faraz qilamiz.

$$u_s = \frac{u_0 * E_s}{u_0 + (E_s - u_0) \exp\left(-\frac{\gamma v}{L}\right)} \quad (16)$$

Albatta, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirishda erga urug‘ tikilishi va etishtirilishi jarayonida oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlash uchun agrotexnik tadbirlarni o‘tkazilishi, o‘simliklarni har qanday kasallik hamda zararkunandalardan himoya qilish talab etiladi. Shu ma‘noda urug‘lantirish va zararkunandalarga qarshi kurashda agrokimyoviy boshqarishni ko‘rib chiqamiz:

Zararkunandalarga kurashish samaradorligini – ZKS oshishi, $Y(Z)$ zararkunandalarga zarar etkazilmagan taqdirdagi hosil hajmini ifoda etib, Z - suv, o‘g‘it va ishchi kuchi kabi zararkunandalarga qarshi kurash bilan bog‘liq bo‘lmagan ishlab chiqarishning barcha manbalarini ifodalaydi. Y maksimal potensial rentabellikka yaqin bo‘lgunga qadar Y Z da oshib borishi kuzatiladi. $ZU(N, X)$ zararkunandalar zararlanishidan yo‘qolgan hosilning ulushini bildirsin, bu erda N - zararkunandalarning boshlang‘ich populyatsiyasi va X – pestitsidlar bo‘lganda, zararkunandalarga kurashish samaradorligi quyidagicha beriladi:

$$ZKS = [1 - ZU(N, X)] * Y(Z) \quad (17)$$

Zararkunandalarga qarshi kurash mahsulot sifatiga va miqdoriga ta‘sir qiladi. Chunki, dehqonning tovar uchun oladigan narxi p ga teng bo‘lib, uning sifatiga bog‘liq va u quyidagicha ifoda etadi:

$$p = p[q(N, X, Z)] \quad (18)$$

Bu yerda q sifatni zararkunandalarga qarshi haqiqiy bosim o‘lchovi bilan bir qatorda, ham samarali, ham zararkunandalarga qarshi kurash usuli sifatida ko‘rsatadi. Tadqiqotlar shundan dalolat beradiki, hozirgi kunda albatta, zararkunandalarga qarshi kurashda sifat ortib bormoqda, lekin, pestitsidlar kabi ba‘zi muolajalar uchun haddan tashqari ko‘p foydalanish q ni kamaytirishi mumkin. Shunday qilib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini etishtirish samaradorligidan olinadigan foyda – F quyidagicha hisoblanadi:

$$F = p[q(N, X, Z)] * \{[1 - ZU(N, X)] * Y(Z)\} \quad (19)$$

bu yerda, $C(X)$ va $K(Z)$ -mos ravishda zararkunandalarga qarshi kurash va boshqa kirishlar. Pestitsidlarga kelsak, masalan, $C(X)$ pestitsidlarni sotib olish, shuningdek, uskunalarni ijaraga olish, o‘qitilgan ishchilarni yollash va monitoringini o‘z ichiga oladi. $C(X)$ shuningdek, fermer javobgar bo‘lgan ekologik yoki sog‘liq bilan bog‘liq zararni yumshatish yoki kompensatsiya qilish xarajatlarini o‘z ichiga olishi mumkin. Matematik optimallashtirish terminologiyasida F - dehqonning maqsadli vazifasi hisoblanadi.

Albatta, ushbu keltirib o‘tilgan ta’sirlar \propto vektorning komponentlari deb hisoblash mumkin. Bunday holda, qiymatlarning o‘zgarishi bir zumda emas, balki kechikishlar bilan sodir bo‘ladi.

Inson organizmi uchun bir sutkada n xil A_1, A_2, \dots, A_n ozuqa moddalari kerak bo‘lsin, jumladan bir sutkada A_1 ozuqa moddasidan kamida b_1 miqdorda bo‘lib, a_1 miqdordan oshib ketmasin, A_2 ozuqa moddasidan b_2 miqdorda bo‘lib, a_2 miqdordan oshib ketmasin va hokazo, A_n ozuqadan b_n miqdorda bo‘lib, a_n miqdordan oshib ketmasin va ularni m ta B_1, B_2, \dots, B_m mahsulotlar tarkibidan olish mumkin bo‘lsin. Har bir B_i mahsulot tarkibidagi A_j ozuqa moddasining miqdori a_{ij} birlikni tashkil qilsin.

	A_1	A_2	...	A_n	Mahsulot bahosi
B_1	c_{11}	c_{12}		c_{1n}	p_1
B_2	c_{21}	c_{22}		c_{2n}	p_2
...					...
B_m	c_{m1}	c_{m2}		c_{mn}	p_m
Ozuqa moddasining maksimal meyori	b_1	b_2		b_n	
Ozuqa moddasining minimal meyori	a_1	a_2		a_n	

Masalaning iqtisodiy ma’nosi: iste’mol savatiga qanday mahsulotlardan qancha miqdorda kiritish kerakki, natijada:

- a) inson organizmi qabul qiladigan turli ozuqa moddasining miqdori belgilangan minimal miqdordan kam va maksimal miqdordan ko‘p bo‘lmasin;
- b) iste’mol savatining umumiy bahosi eng kam bo‘lsin.

U holda masalaning a) sharti quyidagi tengsizliklar sistemasi orqali ifodalanadi:

$$\begin{cases} a_1 \leq c_{11}x_1 + c_{21}x_2 + \dots + c_{m1}x_m \leq b_1 \\ a_2 \leq c_{12}x_1 + c_{22}x_2 + \dots + c_{m2}x_m \leq b_2 \\ \dots \\ \dots \\ a_n \leq c_{1n}x_1 + c_{2n}x_2 + \dots + c_{mn}x_m \leq b_n \end{cases} \quad (20)$$

Masalaning iqtisodiy ma’nosiga ko‘ra, undagi noma’lumlar manfiy bo‘la olmaydi, ya’ni: $x_i \geq 0, (i = \overline{1, m})$.

Masalaning b) sharti uning maqsadini ifodalaydi. Demak, masalaning maqsadi iste’mol savatiga kiritiladigan mahsulotlarning umumiy bahosini minimallashtirishdan iborat bo‘lib, uni quyidagicha ifodalash mumkin:

$$P = p_1x_1 + p_2x_2 + \dots + p_mx_m \rightarrow \min \quad (21)$$

Shunday qilib, iste’mol savati masalasining matematik modeli quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi

$$P = p_1x_1 + p_2x_2 + \dots + p_mx_m \rightarrow \min \quad (22)$$

$$\begin{cases} a_1 \leq c_{11}x_1 + c_{21}x_2 + \dots + c_{m1}x_m \leq b_1 \\ a_2 \leq c_{12}x_1 + c_{22}x_2 + \dots + c_{m2}x_m \leq b_2 \\ \dots \\ \dots \\ a_n \leq c_{1n}x_1 + c_{2n}x_2 + \dots + c_{mn}x_m \leq b_n \end{cases} \quad (23)$$

$$x_1, x_2, \dots, x_m \geq 0.$$

Birinchi qadamda bir qator aniq vazifalarni hal qilish zarur: amalda har bir foydali ozuqaning chegaraviy qiymatlari a_i va b_i lar davlat, jamoat tashkilotlari, ishlab chiqaruvchilar va tibbiyot muassasalarining o‘zaro hamkorligi jarayonida o‘rnatiladi. Ushbu o‘zaro hamkorlik jarayoni o‘ziga xos institutsional xarakterga ega bo‘lib, har bir mamlakat uchun farq qiladi.

Ko‘plab olimlarning ta’kidlashicha, ishemik yurak kasalligi rivojlanishining muhim omillari tarkibida transyog‘lar meyordan ortiq bo‘lgan oziq-ovqatlarni iste’mol qilish chekish va spirtli ichimliklarga qaraganda, inson sog‘lig‘i uchun asosiy xavflardan biri hisoblanadi²¹. Ushbu olimlar o‘z asarlarida to‘yingan yog‘ning ruxsat etilgan maksimal iste’molini – b_1 , transyog‘larni – b_2 , tuzlarni – b_3 ; omega -3 yog‘ kislotalarining ruxsat etilgan minimal miqdorini – a_4 ko‘rinishda belgilaydi.

To‘yingan hayvon yog‘lari va o‘simlik transyog‘larini haddan tashqari ko‘p iste’mol qilishga kasallik va o‘lim kelib chiqishining tan olingan omili sifatida qaraladi.

Odatda, “baliq va baliq mahsulotlarida to‘yingan yog‘ kunlik iste’molining atigi 0,1% ni tashkil etadi, mol go’shtida - 23,9%, sariyog‘da - 11,3%, margarinda - 3,4%. Kundalik meva iste’molini o‘rtacha kattalikdagi olma bilan solishtirganda iste’mol qilinmaydigan qismi bilan birga atigi 164 g. tashkil etadi”²².

O‘zbekistonda “Iste’molchilar huquqlarini himoya qilish jamiyatlari federatsiyasi” tomonidan ishlab chiqilgan iste’mol savatida to‘yingan yog‘ miqdori hisob -kitoblarimizga ko‘ra, kuniga 37,4 g ni tashkil etadi, bu tavsiya etilgan 25 g.(b_1 , ko‘rsatkich)darajadan deyarli 1,5 marta ko‘p. Yuqoridagi nomutanosiblikning sababi federatsiyasi tomonidan ishlab chiqilgan iste’mol savatida yog‘li go’sht va sut mahsulotlari haddan tashqari ko‘pligi holatida meva va rezavor mahsulotlar etishmasligidir.

Respublikamiz aholisi uchun iste’mol savatiga nisbatan bir yilda to‘g‘ri keladigan kartoshka mahsuloti mehnatga layoqatli aholi toifasiga 1912,8 ming tonna, pensionerlar uchun 207,9 ming tonna va bolalar uchun 1137,3 ming tonna meyoriy ko‘rsatkich sifatida aniqlangan bo‘lsa, ushbu mahsulotning jami ko‘rsatkichi 3258,0 ming tonnaga teng bo‘lib, bu o‘z navbatida mamlakat qishloq xo‘jaligida eng kami bilan shuncha hajmdagi kartoshka mahsuloti etishtirilish lozimligini ko‘rsatadi. Dissertatsiyada mamlakatimizda qishloq xo‘jaligi mahsulotini etishtirishda sabzavot poliz ekinlari 3890,2 ming tonna, mevalar 2784,5 ming tonna, go’sht va go’sht mahsulotlari 1824,5 ming tonna, baliq va baliq mahsulotlari 634,2 ming tonna, sut va


²¹ Zaytseva L. V. Transizomeri — chuma XXI veka // Maslojirovaya promishlennost. 2012. №3. str. 17-22.

²² B.V.Korneychuk. Optimizatsiya produktovoy korzini: vzaimosvyaz ekonomicheskix i meditsinskix faktorov // Sankt-Peterburgskiy filial Natsionalnogo issledovatel'skogo universiteta «Visshaya shkola ekonomiki» 2017g. <https://www.elibrary.ru/item.asp?id=29453182>


sut mahsulotlari 10851,1 ming tonna hamda tuxum etishtirish hajmi kami bilan 7115,2 ming dona ishlab chiqilishi lozimligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatmoqdaki, iste'mol savatiga kiruvchi qishloq xo'jaligi mahsulotlari samaradorligini oshirishni modellashtirishda avvalambor, mamlakat aholisining ushbu mahsulotlarga bo'lgan iste'mol darajasini aniqlab olish va shundan so'ngina, mahsulotlar etishtirish hajmini oshirish yoki kamaytirish to'g'risida qaror qabul qilish maqsadga muvofiqdir.

Dissertatsiyaning **“Mintaqada agrar sektorni optimal rivojlantirish mexanizmini takomillashtirishning prognoz qiymatlarini ishlab chiqish yo'nalishlarini takomillashtirish”** deb nomlangan to'rtinchi bobida Mitnaqada agrar sektorni optimal rivojlantirishni tartibga solishning omilli tahlili, agrar sektorni optimal rivojlantirishni tartibga solish va prognozlashda kompleks o'zgaruvchili modellardan foydalanish va Qashqadaryo viloyatida agrar sektorni optimal rivojlantirishning prognoz qiymatlarini ishlab chiqish va istiqbolli yo'nalishlarini belgilash usullari bayon etilgan.


Asosiy ishlab chiqarish omillarining ishlab chiqarish hajmiga ta'sirini modellashtirish uchun tadqiqotlarda keng qo'llaniladigan Kobba-Duglas neoklassik modelidan foydalanildi. Ushbu makroiqtisodiy model ishchi kuchi va kapital miqdori, kapitalning organik tuzilishini belgilaydigan ilmiy-texnik taraqqiyot darajasining ishlab chiqarish hajmining oshishiga qo'shgan hissasini baholashga imkon beradi.



1-chizma. Daromadlarni bir gektar maydonga to'g'ri keladigan kapital bilan ta'minlanganlikka bog'liqligi: $Y=f(K)$



2-chizma. Daromadni bir gektar maydonga to'g'ri keladigan ishchi kuchi soniga bog'lilqligi: $Y=f(L)$



3-chizma. Ishlab chiqarish funksiyalarining elastikligini tahlil qilish va kengaytirilgan ishlab chiqarish manbalarini aniqlash algoritmi²³

Funksiyaning umumiy ko'rinishi quyidagi shaklga ega bo'ladi:

$$Y = AK^\alpha L^\beta, \quad (24)$$

²³ Muallif ishlanmasi

Bu yerda: Y — ishlab chiqarish hajmi; A — ishlab chiqarish omillari mutanosibligining texnologik koeffitsiyenti; K — kapital hajmi; L — ishchi kuchi soni; α — ishlab chiqarish hajmining kapital bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti; β — ishlab chiqarish hajmining ishchi kuchi bo'yicha elastiklik koeffitsiyenti.

Ishlab chiqarish funksiyasining stoxastik modellarini tahlil qilish quyidagi algoritmgaga muvofiq amalga oshiriladi²⁴ (4.1.1-chizmaga qarang).

Zaruriy ma'lumotlarning mutloq qiymatlari Qashqadaryo viloyati tumanlari kesimida agrar sektor mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarning moliyaviy-iqtisodiy holati to'g'risidagi yillik hisobotlari asosida 2010-2025 yillar uchun shakllantirilgan. Ishlab chiqarish hajmi va asosiy ishlab chiqarish omillari orasidagi o'zaro bog'liqlikning bir omilli modellarini yaratish uchun korrelyatsion-regression tahlil usulidan foydalanamiz. Ishlab chiqarish hajmi va asosiy ishlab chiqarish omillari orasidagi bog'liqlikning bir omilli stoxastik modellarini va ular adekvatligini ifodalovchi mezon bo'yicha ko'rsatkichlar, determinatsiya koeffitsiyenti quyida keltirib o'tilgan.

Funksiya argumentining k va L omillarga nisbatan elastiklik koeffitsiyentlari quyidagilarga teng:

$$\alpha = \frac{dY}{dK} \frac{K}{Y} = \frac{251.78 * 0,4345 * K^{-0,5655} * K}{109.21 * K^{0,4345}} = 0,4345 \quad (25)$$

$$\beta = \frac{dY}{dL} \frac{L}{Y} = \frac{818.48 * 2.8198 * L^{1,8198} * L}{818.48 * L^{2,8198}} = 2,8198 \quad (26)$$

Elastiklikning umumiy koeffitsiyenti $\nu = \alpha + \beta = 3,25$ ga teng bo'lib, mahsulot ishlab chiqarishda foydalanilayotgan omillarni bir foizga oshishi agrar sektor mahsulotlaridan daromadni 3,25 foizga oshirishini bildiradi.

Iqtisodiy o'sishning ekstensiv manbalarini aniqlash:

$$Y_{K_3} = \frac{\alpha}{\nu} \Delta K \quad Y_{K_3} = \frac{0,4345}{3,2543} * 9,2226 = 1,2313$$

$$Y_{L_3} = \frac{\beta}{\nu} \Delta L \quad Y_{L_3} = \frac{2,8198}{3,2543} * (-0,1266) = 0,1096 \quad (27)$$

Iqtisodiy o'sishning intensiv manbalarini aniqlash:

$$Y_{Ku} = (\nu - 1) \frac{\alpha}{\nu} \Delta K \quad Y_{Ku} = (3,2543 - 1) * 1,2313 = 2,7757$$

$$Y_{Lu} = (\nu - 1) \frac{\beta}{\nu} \Delta L \quad Y_{Lu} = (3,2543 - 1)(0,1096) = 0,247 \quad (28)$$

Asosiy ishlab chiqarish omillari natijasida ishlab chiqarish jarayonini intensivlashtirishning umumiy ko'rsatkichini aniqlash:

²⁴ Prikina, L.V. Ekonomicheskii analiz predpriyatiya / L.V. Prikina. — M.: OOO «Izdatelstvo YUNITI-DANA», 2003. — 407 c.

$$Y_{uum} = \frac{(v-1)\left(\frac{\alpha}{v}\Delta K + \frac{\beta}{v}\Delta L\right)}{Y} \quad Y_{uum} = \frac{(3,243-1)(0,2136+0,0047)}{2001,684} = 0,0005 \quad (29)$$

Ishlab chiqarish hajmini ishchi kuchi bilan ta'minlanganligi bo'yicha maksimal elastikligi sharoitida, Qashqadaryo viloyati agrar sektor tashkilotlarida hisobot davrida 100 gektar agrar sektor maydoniga to'g'ri keladigan ishchilar sonini 111,5 dan 98,8 kishiga (=0,126) kamayishi kuzatildi. Mehant unumdorligini pasayishi bilan bir qatorda ishlab chiqarish qisqarishining ekstensiv va intensiv omili bo'lib xizmat qiladi.

Kengaytirilgan ishlab chiqarishni boshqarishning samarali vositasi asosiy kapital bo'lib, tahlil qilinayotgan davrda asosiy fondlardan foydalanish intensivligini oshishi kapital bilan ta'minlanganlikning ekstensiv o'sishiga qaraganda ishlab chiqarish hajmini yuqori o'sishini ta'minlaydi (har bir agrar sektor maydoniga 28,29 dan 37,51 mln so'mgacha $\Delta K=9,22$).

Ishlab chiqarish hajmining kapital va ishchi kuchi taklifiga bog'liqligini ishlab chiqarish funksiyasi quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

$$Y = 6.1469 * K^{0.21} * L^{1.62}, \quad (30)$$

Bu yerda Y — har bir gektar erga to'g'ri keluvchi agrar sektor mahsulotlarini sotishdan tushum, mln. so'm;

K — bir gektar agrar sektor maydoniga to'g'ri keladigan asosiy vositalar o'rtacha qiymat, mln.so'm so'm;

L — bir gektar agrar sektor maydoniga to'g'ri keladigan ishchilarning o'rtacha soni, kishi.

Shunday qilib, ishlab chiqarish funksiyalarining stoxastik modellarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ishlab chiqarish funksiyasi ishchi kuchi taklifining o'zgarishiga nisbatan yuqori elastikligi bilan ajralib turadi. Qayta ishlab chiqarish jarayonini boshqarishning eng muhim vositasi maksimal darajada intensiv foydalanish asosida ishchi kuchi bilan ta'minlanganlik va mehnat quollaridan foydalanish samaradorligini oshirish bo'lishi lozim.

Stoxastik modellar bilan bir qatorda mintaqa agrar sektorda ishlab chiqarishni kompleks tavsiflash ko'p omilli deterministik modelni shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

Qayta ishlab chiqarish tizimini omilli deterministik tahlili natijaviy va omil ko'rsatkichlari o'rtasidagi munosabatni o'rganish va modellashtirishning samarali vositasi hisoblanadi. Deterministik model quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$N = \frac{\pi}{FA + WC}, \quad (31)$$

Bu yerda π - foyda ming so'm;

FA - asosiy fondlarning o'rtacha yillik qiymati mln. so'm.;

WC - aylanma mablag'larning o'rtacha yillik qiymati mln. so'm.

Rasmiy ajratishi imkoniyati va kengaytirish imkoniyatidan foydalangan holda keltirilgan modelni quyidagi ko'rinishda ifodalash mumkin:

$$N = \frac{\pi / R}{FA / R + WC / R} = \frac{(R - CS - M - D) / R}{FA / R + WC / R} = \frac{1 - (CS / R + M / R + D / R)}{FA / R + WC / R} \quad (32)$$

Bu yerda R - tushum ming so'm;

CS - hisoblangan ish haqi ming so'm;

M - xom ashyo, materiallarga xarajatlar ming so'm;

D - asosiy vositalarning eskirishi, ming so'm.

Keltirilgan ifodani to'g'ridan-to'ri sifat ko'rsatkichlari bo'yicha o'zgartirib, qayta ishlab chiqarish intensivligi darajasining omilli modelini shakllantiramiz W:

$$W = \frac{1 - (R / CS + R / M + R / D)}{R / FA + R / WC} \quad (33)$$

(4) va (5) formulalarda kasr komponentlari quyidagi iqtisodiy ma'noga ega:

Yuqorida keltirilgan (4) va (5) formulalardagi kasr ko'rinishidagi komponentlar quyidagi iqtisodiy ma'noga ega: R / CS ; CS / R - mos ravishda ish haqi qaytimi va ish haqi sig'imi; R / M ; M / R - materiallar qaytimi va materiallar sig'imi; R / D ; D / R - ishlab chiqarishning amortizatsion qaytimi va amortizatsion sig'imi; R / FA ; FA / R - asosiy vositalar bo'yicha fond qaytimi va fond sig'imi; R / WC ; WC / R - aylanma mablag'lar harakatchanligi va aylanma mablag'lar bo'yicha ishlab chiqarish quvvati.

Bir omilli ishlab chiqarish funksiyalarini tahlil qilish asosida keltirilgan ko'rsatkichlarni kengaytiruvchi omillar tizimini deterministik modelga kiritishda ishlab chiqarish jarayonida amortizatsiyaning ustun o'ringa egaligi aniqlandi: ishlab chiqarish hajmining umumiy o'sishida 3,64 foiz amortizatsiyaning ekstensiv o'sishiga, 96,36 foiz amortizatsiya rentabelligining o'sishi hisobiga ta'minlanishi aniqlandi.

Barcha omillar ichida rentabellikning maksimal sifat ko'rsatkichlari asosiy kapitalga to'g'ri keladi: ya'ni resurslarning bir birlik o'sishiga ishlab chiqarishning 1,363 birligi to'g'ri keladi.

Amortizatsiya va ish haqi ishlab chiqarish manbalarining o'sish birligiga ishlab chiqarish hajmi o'sish sur'atining 1.768 birligi to'g'ri keladi.

Ishlab chiqarish funksiyalarining bir omilli statistik modellarini tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mehnat resurslarini miqdoriy ta'minoti asosiy kapitalning zaruriy ta'minotiga erishilganda va undan intensiv foydalanishda iqtisodiy o'sish jarayonlariga ta'sir ko'rsatishning asosiy vositasi hisoblanadi.

Respublikada agrar sektorni kompleks islohotlash bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar kutilgan natijalarga olib kelmoqda va agrar sektor sohalarida asosiy ko'rsatkichlarning barqaror o'sishiga erishish imkonini bermoqda. Agrar sektor sohasini yanada rivojlantirish uchun uni kelajakda qanchalik rivojlanishini prognozlashni tahlil qilib, strategik boshqarishning asosiy qoidalarini belgilab olish uchun uning kelajakda rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlarini, unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash talab etiladi. Shu bilan birgalikda tabiiy hamda biologik qonunlar talablarini ham e'tiborga olish zarur. Ayniqsa agrar sektor sohasini rivojlantirishda dexqonchilik, chorvachilik, er hamda ishchi kuchlaridan oqilona foydalanish lozim.

Qashqadaryo viloyati agrar sektorning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi²⁵

Yillar	T	Q_t	L_t	$Y_{\text{эм}}$	Y_{xe}	Y_{dx}	Y_{ux}
2010	1	5978,3	2967	3647,5	4026,2	3323,1	2655,2
2011	2	7538,8	2936	3637,4	4034,1	4215	3323,8
2012	3	9304,9	2998	3560,3	4041,9	5170,1	4134,8
2013	4	11310,7	3036	3609,7	4050,6	6400,1	4910,6
2014	5	13628,6	2898	3608,6	4053,3	8089	5539,6
2015	6	+30856,7	3118,1	3708,4	4054,6	18119	12737,7
2016	7	45285,9	3229,4	3601,6	4052	25874,6	19411,3
2017	8	55750	3251,7	3628,1	4045,6	30592,3	25157,7
2018	9	66435,3	3402,1	3658,6	4043,4	36237,4	30197,9
2019	10	81794,3	3528,9	3678,2	4035,5	43194,3	38600
2020	11	99604,6	3601,7	3694,2	4023,9	55429,2	44175,4
2021	12	115599,2	3646,7	3706,7	4020,7	61755,1	53844,1
2022	13	148199,3	3671,3	3474,5	4014,8	83303,4	64895,9
2023	14	187425,6	3537,2	3396	3999,0	98406,4	89019,2
2024	15	216283,1	3544,6	3309,4	4020,9	111904,8	104378,3
2025	16	249754,5	3560,0	3373,1	4023,7	123556	126198,5

Agrar sektor qarshisida shunday muammolar turadiki, ularning muvaffaqiyatli echimi respublika hayotida agrar sektorning o'rnini va ahamiyatini ancha ko'tarish imkonini beradi. Davlat tomonidan agrar sektor uchun ajratilgan er miqdori rivojlanishini, agrar sektorda ishlovchilarni soni, dexqonchilik, chorvachilik sohalarini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib xizmat qilishini hisobga olib, uni rivojlanish samaradorligini modellashtiramiz.

Tahlillarni amalga oshirish uchun 2010-2025-yillar ma'lumotlaridan foydalaniladi (5-jadval).

Q_t - ishlab chiqarish hajmi, mlrd, so'm,

L_t - agrar sektorda bandlar, ming kishi,

$Y_{\text{эм}}$ - agrar sektor ekinlari ekin maydoni, ming ga,

Y_{xe} - haydalgan erlar, ming ga,

Y_{dx} - dexqonchilik maxsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, mlrd, so'm,

Y_{ux} - chorvachilik maxsulotlarini ishlab chiqarish hajmi, mlrd, so'm,

Modelni quyidagicha tasavvur qilamiz:

$$Y_{\text{dx}} + iY_{\text{ux}} = (a_0 + ia_1)L_t^{(\alpha_0 + i\alpha_1)}(Y_{\text{эм}} + iY_{\text{xe}})^{(\beta_0 + i\beta_1)} \quad (34)$$

(1) kompleks o'zgaruvchili chiziqsiz modelni kompleks koeffitsiyentlarini $(a_0 + ia_1)$, $(\alpha_0 + i\alpha_1)$, $(\beta_0 + i\beta_1)$ va noma'lum parametrlarini topish uchun $(a_0, a_1, \alpha, \beta)$ kichik kvadratlar usulidan foydalanamiz, buning uchun (1) tenglamani natural

²⁵ O'zbekistonning yillik statistik qo'mitasi rasmiy sayti (www.stat.uz)

logarifmlar yordamida chiziqli tenglamaga keltirish zarur, shuning uchun (1) tenglamani ikkala tomonini ham natural logarifmlaymiz:

$$\ln(Y_{\partial xt} + iY_{xxt}) = \ln(a_0 + ia_1) + (\alpha_0 + i\alpha_1) \ln L_t + (\beta_0 + i\beta_1) \ln(Y_{\partial mt} + iY_{xet}) \quad (35)$$

(1,2) chiziqli tenglamni koeffitsiyentlarini topish uchun kichik kvadratlar usulidan foydalanamiz:

$$\begin{cases} \sum \ln(Y_{\partial xt} + iY_{xxt}) = T \ln A + \alpha \sum \ln L_t + \beta \sum \ln(Y_{\partial mt} + iY_{xet}) \\ \sum \ln(Y_{\partial xt} + iY_{xxt}) \ln L_t = \ln A \sum \ln L_t + \alpha \sum \ln^2 L_t + \beta \sum (\ln Y_{\partial mt} + iY_{xet}) \ln L_t \\ \sum \ln(Y_{\partial xt} + iY_{xxt}) \ln(Y_{\partial mt} + iY_{xet}) = \ln A \sum \ln(Y_{\partial mt} + iY_{xet}) + \alpha \sum (Y_{\partial mt} + iY_{xet}) \ln L_t + \beta \sum \ln^2(Y_{\partial mt} + iY_{xet}) \end{cases} \quad (36)$$

Bu erda, T – kuzatishlar soni, $t=1,2,3, \dots, T$,

(3) sistema koeffitsiyentlarini topish uchun respublika agrar sektor bo'yicha statistik ma'lumotlaridan foydalanib (Microsoft Excel) programmasi yordamida topamiz, quyidagi sistema xosil bo'ldi.

$$\begin{cases} 12,356+10,235i=12\ln A-1,254\alpha+(2,432+10,523i)\beta \\ -3,710-1,54901i=-2,5267\ln A+0,497\alpha+(-0,354-1,502i)\beta \\ -0,102+28,657i=(2,515+10,752i)\ln A-(0,354+2,051i)\alpha-(4,324-5,268i)\beta \end{cases}$$

Natijada koeffitsiyentlar quyidagicha ifdalanadi:

$$\begin{cases} \alpha_0 + i\alpha_1 = -10,567+0,289i \\ \beta_0 + i\beta_1 = 0,249+0,538i \\ a_0 + ia_1 = 1,516+0,121i \end{cases}$$

topilgan koeffitsiyentlarni (1) modelga qo'ysak model quyidagicha ko'rinishga ega bo'ladi:

$$Y_{\partial x} + iY_{xx} = (1,516 + 0,121i)L^{(-10,567+0,289i)}(Y_{\partial m} + iY_{xe})^{(0,249+0,54i)} \quad (37)$$

Endi model qanchalik haqiqatga yaqinligi tekshiramiz, modelni tekshirish uchun bizga quyidagi parametrlar kerak bo'ladi: $\varphi_a, R_a, \varphi, R$

$$\varphi_a = \frac{a_1}{a_0}, \quad R_a = \sqrt{a_0^2 + a_1^2}, \quad \text{gde} \quad Ra = A_0 = \sqrt{a_0^2 + a_1^2} \quad \text{--aniqlanayotgan omilni}$$

kompleks o'zgaruvchili moduli, $\varphi_a = A_1 = \arctg \frac{a_1}{a_0}$ – qutb burchagi,

$$\varphi_t = \varphi_a + b_1 \sqrt{Y_{yt}^2 + Y_{nt}^2} + c_1 \ln L_t$$

$$R_t = R_a L_t^{b_0} b_0 \sqrt{Y_{yt}^2 + Y_{nt}^2}, \quad R_t = \sqrt{Y_{yt}^2 + Y_{nt}^2} \quad \text{-- aniqlanayotgan}$$

omilni kompleks o'zgaruvchili moduli, $Y_{pt} = R_t \cos \varphi_t$ $Y_{jt} = R_t \sin \varphi_t$

Hisob kitoblar natijalari²⁶

1. yil	2.T	3. Q_{tp}	4. Q_{tn}	5. Y_{oxp}	6. Y_{exp}	7. Y_{oxn}	8. Y_{xnn}
2010	1	1	2,545	1	1	1,74	1,50
2011	2	1,261	2,879	1,268	1,252	1,33	1,87
2012	3	1,556	3,822	1,556	1,557	2,18	1,94
2013	4	1,892	12,759	1,926	1,849	5,85	5,36
2014	5	2,280	23,605	2,434	2,086	10,66	10,93
2015	6	5,161	32,657	5,452	4,797	17,85	15,20
2016	7	7,575	38,565	7,786	7,311	18,53	20,60
2017	8	9,325	34,702	9,206	9,475	15,68	18,43
2018	9	11,113	38,566	10,905	11,373	18,60	23,15
2019	10	13,682	45,207	12,998	14,538	25,91	31,25
2020	11	16,661	55,506	16,680	16,637	32,57	37,47
2021	12	19,336	67,430	18,584	20,279	34,58	25,27
2022	13	24,790	80,458	25,068	24,441	27,79	40,17
2023	14	31,351	90,345	29,613	33,526	42,02	47,74
2024	15	36,178	96,670	33,675	39,311	44,90	55,09
2025	16	41,777	102,220	37,181	47,529	45,15	57,07


Haqiqiy qismi xatosi: $\varepsilon_p = \frac{1}{T} \sum_{t=1}^T |Y_t - \widehat{Y}_t| = 6,9$

Mavhum qismi xatosi: $\varepsilon_j = \frac{1}{T} \sum_{t=1}^T |Y_t - \widehat{Y}_t| = 7,2$

Ishlab chiqarish hajmi bo'yicha xatosi:

$$\varepsilon_g = \frac{1}{T} \sum_{t=1}^T |G_t - G'_t| = 22,2$$

(3) modelni hisoblangan va statistik qiymatlarini grafikda tasvirlaymiz:



3-rasm. Statistik qiymatliklar va hisoblangan qiymatliklar²⁷

²⁶ Muallif ishlanmasi

²⁷ Muallif ishlanmasi

(3) jadvaldan ma'lumki model haqiqatga yaqinroq, endi (3) modelni μ multiplikatorini topamiz:

$$\mu_t = \frac{Q_t}{\bar{Q}_t}$$

$$\sqrt[t]{\prod_t \mu_t} = \bar{\mu}$$

$$Y_p + iY_j = \bar{\mu}(1,215 + 0,012i)L^{(-18,9+0,35i)} (Y_y + iY_n)^{(0,9+0,33i)} \quad (38)$$

μ topgandan keyin (4) model quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

$$Y_p + iY_j = (0,606 + 0,006i)L^{(-18,9+0,35i)} (Y_y + iY_n)^{(0,9+0,33i)} \quad (39)$$


7- jadval

Yil	T	Q_{ip}	$\mu A Q_{t,xuc}$
2010	1	1	2,545
2011	2	1,261	2,879
2012	3	1,556	3,822
2013	4	1,892	4,759
2014	5	2,280	6,605
2015	6	5,161	8,657
2016	7	7,575	12,565
2017	8	9,325	16,702
2018	9	11,113	18,566
2019	10	13,682	20,207
2020	11	16,661	22,506
2021	12	19,336	23,43
2022	13	24,790	27,458
2023	14	31,351	35,345
2024	15	36,178	39,67
2025	16	41,777	45,545

(Q_{ip} - statistik ma'lumot. $\mu A Q_{t,xuc}$ - hisoblangan qiymat)

Endi (5) modelni hisoblangan qiymatini va berilgan statistik ma'lumotlarini taqqoslab modelni qanday tavsiflanishini tekshiramiz.

7-jadvaldan ma'lumki μ topgandan keyin agrar sektor ishlab chiqarish hajmini hisoblangan qiymati haqiqatga yaqinlashdi. Buni yanada yaqqol ko'rish uchun grafikda tasvirlaymiz.



4-rasm. Statistik qiymatliklar va hisoblangan qiymatlar²⁸

$$\varepsilon_g = \frac{1}{T} \sum_{t=1}^T |G_t - G'_t| = 5,5 \quad (40)$$

(5) modelni xatosi ham to‘rt barobarga kamaydi. endi (5) modelga asosan agrar sektor ishlab chiqarish hajmi, dexqonchilik va chorvachilik tarmog‘larini prognoz qilamiz (bajarilayotgan prognozlar o‘lchamsiz kattaliklarda) (8-jadval):

8- jadval

Qashqadaryo viloyatining agrar sektor ishlab chiqarishi xajmi, dehqonchilik va chorvachilik tarmoqlarining prognoz qiymatlari²⁹

yil	T	Q_t	Y_0	Y_q
2026	17	104.02	46.15	57.87
2027	18	105.16	47.04	58.12
2028	19	109.3	49.7	59.6
2029	20	112.6	51.05	61.55
2030	21	116.72	53.67	63.05

Endi agrar sektorni prognozlash uchun haqiqiy sonli o‘zgaruvchili modeldan foydalanamiz.

$$Q_t = AL_t^\alpha S_{\text{эм}}^\beta S_{\text{xe}}^\gamma \quad (41)$$

Bu yerda: Q_t - ishlab chiqarish hajmi. mlrd. so‘m.

L_t - agrar sektorda bandlar. ming kishi

$S_{\text{эм}}$ - agrar sektor ekinlari ekin maydoni. ming ga.

S_{xe} - haydalgan yerlar. ming ga.

Modelni tekshirib ko‘rish uchun yuqoridagi amallarni bajaramiz:

²⁸ Muallif ishlanmasi

²⁹ Muallif ishlanmasi

$$\ln Q_t = \ln A + \alpha \ln L_t + \beta \ln S_{\text{э}mt} + \gamma \ln S_{\text{xe}t}$$

$$\left\{ \begin{array}{l} \sum \ln Q_t = T \ln A + \alpha \sum \ln L_t + \beta \sum \ln S_{\text{э}mt} + \gamma \sum \ln S_{\text{xe}t} \\ \sum \ln Q_t \ln L_t = \ln A \sum \ln L_t + \alpha \sum \ln^2 L_t + \beta \sum \ln S_{\text{э}mt} \ln L_t + \gamma \sum \ln S_{\text{xe}t} \ln L_t \\ \sum \ln Q_t \ln S_{\text{э}mt} = \ln A \sum \ln S_{\text{э}mt} + \alpha \sum \ln L_t \ln S_{\text{э}mt} + \beta \sum \ln^2 S_{\text{э}mt} + \gamma \sum \ln S_{\text{xe}t} \ln S_{\text{э}mt} \\ \sum \ln Q_t \ln S_{\text{xe}t} = \ln A \sum \ln S_{\text{xe}t} + \alpha \sum \ln L_t \ln S_{\text{xe}t} + \beta \sum \ln S_{\text{э}mt} \ln S_{\text{xe}t} + \gamma \sum \ln^2 S_{\text{xe}t} \end{array} \right. \quad (7)$$

Bu yerda . T – kuzatishlar soni. $t=1.2.3.T$.

$$\left\{ \begin{array}{l} 21.2 = 16 \ln A - 1.25 \alpha - 3.34 \beta - 0.98 \gamma \\ 3.45 = -1.25 \ln A + 0.16 \alpha + 0.54 \beta + 0.12 \gamma \\ -5.23 = -2.28 \ln A + 0.54 \alpha + 0.58 \beta + 0.52 \gamma \\ -0.54 = -0.98 \ln A + 0.12 \alpha + 0.52 \beta + 0.015 \gamma \\ \ln A = \frac{21.2 + 1.25 \alpha + 3.34 \beta + 0.98 \gamma}{16} \end{array} \right.$$

$$\left\{ \begin{array}{l} 8.7 = 0.99 \alpha + 4.46 \beta + 0.695 \gamma \\ 5.34 = 5.79 \alpha + 1.66 \beta + 6.609 \gamma \\ 12.14 = 0.695 \alpha + 5.05 \beta - 0.72 \gamma \\ \alpha = 4.6 \quad \beta = -3.2 \quad \gamma = 0.57 \end{array} \right.$$

$$\ln(a) = A \Rightarrow a = 3,2$$

Bulardan (6) model quyidagicha ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$Q_t = 3,2 L_t^{4,6} S_t^{-3,52} S_t^{0,57} \quad (42)$$

(7) model xatoligini topadigan bo‘lsak $\varepsilon_g = \frac{1}{T} \sum_{t=1}^T |G_t - G'_t| = 14,2$ modelimiz jarayonni yaxshi tavsiflamoqda. Buni 5-jadvaldan ko‘rish mumkin:

9-jadval

Agrar sektor ishlab chiqarish hajmini prognoz qiymatlari³⁰

yil	T	Q_{tp}	$Q_{t,xuc}$
2010	1	1	2.65
2011	2	1.26	2.79
2012	3	1.55	3.65
2013	4	1.89	5.05

³⁰ Muallif ishlanmasi

2014	5	2.28	7.37
2015	6	5.16	8.22
2016	7	7.57	14.37
2017	8	9.32	16.91
2018	9	11.13	18.73
2019	10	13.62	20.78
2020	11	16.61	23.57
2021	12	19.36	26.43
2022	13	24.79	27.58
2023	14	31.31	35.45
2024	15	36.17	49.67
2025	16	41.77	55.54

(Izoh: hamma hisob kitoblar cheksiz ko‘rsatkichlar yordamida qilingan)

9-jadvalda ko‘rib turganimizdek (8) model yordamida faqat agrar sektor ishlab chiqarish hajmini prognozlay oldik. haqiqiy o‘zgaruvchili modelimiz birdaniga bir nechta tarmoqlarni prognoz qilish imkoniyatiga ega emas. Ya’ni. Agrar sektorni dexqonchilik va chorvachilik sohalarining har biri uchun alohida model tuzib pronozlash mumkin. Kompleks sonli o‘zgaruvchili model yordamida bir yo‘la uchala sohani ham prognozlash imkoniyatiga ega bo‘lib ular o‘zaro ta’sirini ham tahlil qilish imkoniyati mavjud. Natijalardan. Haqiqiy o‘zgaruvchili modellarni inkor etmagan holda. Kompleks o‘zgaruvchili modellar imkoniyatlari bir muncha kengroq ekan degan xulosaga kelish mumkin.

Agrar sektor sohasini texnik va bozorni qo‘llab-quvvatlashni ta’minlaydigan siyosatni amalga oshirish uchun ularga ichki prognozlar kerak bo‘ladi. Shu sababli hukumat nashrlari xususiy qaror qabul qiluvchilarga muntazam ravishda mintaqaviy va milliy darajalarda hamda turli xil yo‘nalishlarda tovarlarning narxi va miqdorini prognoz qiymatlarini taqdim etishga harakat qiladi. Biroq ishonchli va aniq prognoz ko‘rsatkichlarni mutazam ravishda topish imkoniyati bo‘lmaydi bu esa mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun kelgusi faoliyatini rejalashtirish, mahsulot hajmi va turini belgilashda qiynchiliklarni keltirib chiqargani holda tavakkalchilik darajasini oshiradi³¹.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda, ob-havoning yuqori darajada o‘zgarishi, ekologik jihatdan og‘ir hududda joylashganligi hamda agrar sektorda mahsulot etishtirishning sug‘orma dehqonchilikka asoslanganligi bilan ajralib turadigan Qashqadaryo viloyatida agrar sektor mahsulotlari etishtirish ko‘rsatkichlarini prognoz qiymatlari ishlab chiqildi. Ko‘plab omillar agrar sektorda mahsulot etishtiruvchilar uchun mahsulot turi va hajmini aniqlashda noaniqliklarni keltirib chiqarishi tavakkalchilik darajasini oshirgani holda mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun uning ahamiyatligini ta’minlaydi.

Bu o‘z navbatida statistik va ekonometrik usullarga tayangan hamda zamonaviy dasturlardan foydalangan holda aniq va ishonchli, ilmiy jihatdan asosli tahlillarni qilish lozimligini asoslaydi. Keltirilgan fikr va mulohazalarga asoslangan holda Qashqadaryo

³¹ P. Geoffrey Allen. Economic forecasting in agriculture. International Journal of Forecasting 10 (1994) 81-135

viloyatida agrar sektor, dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini etishtirish hajmini keyingi yillar uchun prognoz ko‘rsatkichlari ishlab chiqildi. Prognozni amalga oshirish uchun 2000-2025 yillar ma’lumotlari asos qilib olindi. Shuningdek, ma’lumotlar qiymat shaklida bo‘lganligi sababli ularni taqqoslama narxlarga o‘tkazgan holda real qiymatlari aniqlandi va prognozlarni ishlab chiqishda foydalanildi.

10-jadval

Prognoz qiymatlari ishlab chiqilishi lozim bo‘lgan ko‘rsatkichlar bo‘yicha “Unit root” testi natijalari³²

O‘zgaruvchi nomi	ADF	P qiymat	
Yetishtirilgan agrar sektor mahsuloti	-3.62	0.01	I(1)
Yetishtirilgan dehqonchilik mahsuloti	-3.42	0.02	I(1)
Yetishtirilgan chorvachilik mahsuloti	-3.65	0.01	I(1)

